



ОБРАЗОВАНИЕ, НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 14
Часть-7_Февраль 2023*

OPEN  ACCESS





ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Февраль - 2023 год

ЧАСТЬ - 7



ICI JOURNALS
MASTER LIST

KAMQONLIK ASORATI VA UNI DAVOLASH USULLARI

Mo'minboyev Diyorbek Jasurbek o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Farmatsiya fakulteti 2-kurs talabasi

e-mail: diyorbekmominboyev5@gmail.com

tel: +998883551585

Annotatsiya: Kamqonlik har o'nta odamning to'qqistasida uchraydigan juda keng tarqalgan kassaliklardan biri hisoblanadi va u tibbiyotda anemiya deb ataladi. **Anemiya yoki kamqonlik** qonni hajm birligida gemoglobin va eritrotsitlar, gematokrit miqdorini kamayishi bilan xarakterlanadigan patologik holatdir. Buning natijasida to'qimalarda kislorod tanqisligi – gipoksiya yuz beradi. Gipoksiya yuzaga kelgandan keyin to'qima va hujayralarda moddalar almashunuvi jarayoni buzuladi. Kamqonlik yuzaga kelmasligi uchun to'g'ri ovqatlanish ratsioniga amal qilish, oilaviy poliklinikalarga borib qonimizni muntazam tekshirtirib turishimiz, davolashda esa qaysi turdag'i anemiya ekanligini etiborga olishimiz lozim.

Tayanch iboralar: Anemiya, regeneratsiya, anizotsit, poykiliotsit, gipoxrom, gipoksiya, postgemorragik anemiya, gemolitik, defitsit, B12 va.h.k

Ishning vazifasi: Kamqonlikni oldini olish, davolash usullarini to'g'ri tatbiq qilish va samarali dori vositalarni ko'rib chiqish.

Material va uslublar:

Anemiyani dastlabki o`rganishlar 450 yil ilgari boshlangan. Nemis vrachi Loxannes Lange 1554 yil «kasallik xolatini» («de morbo virgineo») nomi bilan yozgan. Bemorda terini oqarishi, yurak urushi, hansirash, go`shtli ovqatga nisbatan hohishni yo`qolishi kabi belgilar paydo bo`ladi. Anemiya deb, qonning hajm birligida eritrotsitlar va gemoglobin miqdorining kamayishiga, xamda ularning tarkibi xamda morfologiyasida sifat o`zgarishlarini sodir bo`lishiga aytildi. Sifat o`zgarishlari, periferik qonda patologik shaklli eritrotsitlarni paydo bo`lishi bilan ifodalanadi. U quyidagi guruhlarga bo`linadi:

1. Fiziologik regeneratsiya hujayralari-suyak ko`migiga eritrotsitlar parchalanishining mahsulotlarini, gipoksiyani va eritropoetinlarni rag`batlantiruvchi ta'siridan, eritropoezni kuchayishi oqibatida periferik qonda paydo bo`ladigan hujayralar kiradi. Bularga-retikulotsitlar (supravital bo`ylganda oshkor qilinadi), polixromatofil eritrotsitlar, normoblastlar, eritroblastlar kiradi.

2. Patologik regeneratsiya hujayralari. Eritroblastik qon yaratilish tipini megaloblastik tipiga o`zgarishi oqibatida periferik qonda paydo bo`ladigan hujayralar-megaloblastlar, megalotsitlar, Kabo xalqali va Jolli tanachali eritrotsitlar shu qatorga kiradilar.



3. Degenerativ shaklli eritrotsitlar-bularga anizotsitlar, poykiliotsitlar, gipoxrom va giperxrom eritrotsitlar, bazofil donachali eritrotsitlar kiradilar. Qon tarkibida bunday patologik shaklli eritrotsitlarni oshkor qilinishi suyak ko‘migining to‘la-to‘kis eritrotsitlarni yaratish qobiliyatini yo‘qolganligidan (yoki eritrotsitlarni tomir ichida parchalanishidan) darak beradi.

ANEMIYALARNI TASNIFFLASH.

Qon sistemasining patologik xolatlarini u yoki bu alomatiga asoslanib anemik xolatlarni xar xil tasniflash mumkin.

Anemiyalarni etiologiyasi va patogenezi bo‘yicha quyidagicha farqlanadi:

1. Qon yo‘qotgandan so‘ng paydo bo‘ladigan anemiyalar-**postgemorragik anemiyalar**.
2. Eritrotsitlarni shiddatli parchalanishi (gemolizi) oqibatida sodir bo‘ladigan (**gemolitik**) anemiyalar.
3. Eritropoezni buzilishi oqibatida paydo bo‘ladigan (**defitsit**) anemiyalar.

POSTGEMORRAGIK ANEMIYALAR

Postgemorragik anemiyalar, o‘tkir va surunkali bo‘lishi mumkin.O‘tkirpostgemorragik anemiyalar bir yo‘la, tez va ko‘p miqdor qon yo‘qotilishi oqibatida paydo bo‘ladi. Ularni asosiy sabablari, yirik tomirlarni jaroxatlanishi va ichki a’zolarni shikastlanishi xisoblanadi. Qon yo‘qotganda, aylanayotgan qonning umumiyligi kamayganligi, qon bosimning pasayganligini va organlar xamda to‘qimalarning gipoksiyasini ozaytirishga yo‘nalgan qator kompensator mexanizmlar paydo bo‘ladi. Moslashuv reaksiyalari asta-sekin yuzaga keladi va ularni shartli ravishda 3 davrga ajratish mumkin:

1. Reflektor davr-qon yo‘qotgandan keyingi soatlar davomida paydo bo‘ladi va periferik tomirlarning spazmi, qonning xayotiy zaruriy organlarga qayta taqsimlanishi, taxikardiya, qonning minutlik xajmini ko‘payishi, depolardagi qonning siqib chiqarilishi, nafasning tezlashishi va chuqurlashishi kabilar bilan ifodalanadi. Biroq bu davrda gemotologik o‘zgarishlar sodir bo‘lmaydi, chunki qonning umumiyligi miqdori kamaygani bilan uning xajm birligida eritrotsitlar va gemoglobinning miqdorlarida o‘zgarishlar xam paydo bo‘lishiga ulgurmeydi.

2. Gidremik davr-qon yo‘qotgandan 24-48 soat o‘tgandan so‘ng qonning hajm birligida eritrotsitlar va gemoglobinning miqdorini kamayishi yuzaga keladi, chunki aylanayotgan qonning umumiyligi hajmini tiklashga yo‘nalgan yana bir kompensator mexanizm paydo bo‘ladi. Tomir ichiga tomon to‘qima suyuqligi o‘tadi. Bu mexanizmning yuzaga kelishiga qonning osmotik bosimini oshiruvchi gormonlarning hosil bo‘lishini ko‘payishi, diurezni kamayishi va chanqoq hissiyotini ortishi imkoniyat yaratadi. Rang ko‘rsatkichi bu davrda ham o‘zgarmaydi, chunki gemoglobin va eritrotsitlar bir xilda kamayadi.

3. Suyak ko'migi kompensator davri - o'tkir postgemorragik anemiyalar regenerativ anemiyalarga kirganligi tufayli, bu davr eritropoezning kuchayishi bilan ifodalanadi. Qon yo'qotgandan 4-5 kun o'tgach periferik qonda ko'p miqdor fiziologik regeneratsiya hujayralari: retikulotsitlar, polixromatofil eritrotsitlar, har xil generatsiyadagi normoblastlar, hatto eritroblastlar paydo bo'ladilar. Qon yaratish normoblastik tipida bo'ladi. Qonning rang ko'rsatkichi gipoxromdir, chunki eritrotsitlarning gemoglobinlanishi ularni hosil bo'lishidan orqada qoladi. Qonning hamma ko'rsatkichlari asta-sekin tiklanaveradi, biroq tiklanish muddati organizmning umumiy holatiga, yo'qotilgan qonning miqdori va yo'qotish tezligiga, insonning jinsiga, yoshiga, reaktivligiga, kompensator reaksiyalarning takomillashganligiga va boshqa qator omillarga bog'liqligini qayd qilish kerak. Ochlik, yuqumli kasalliklar bilan og'rish, sovuq qotish, isib ketish, chuqur narkoz holati kabilar qon yo'qotishga nisbatan sezgirlikni orttiradi.

Qon yo'qotishga bolalar organizmi ayniqsa sezuvchan, bola qancha yosh bo'lsa, u uchun qon yo'qotishning oqibati shuncha og'irdir. Bu emuvchi bolalarda, ayniqsa chaqaloqlarda himoya–moslashuv mexanizmlarining to'la-to'kis shakllanmaganligi, zudlik bilan kompensatsiyalash mexanizmlarining, ya'ni tomirlarning spazmi (torayishi), taxikardiya, qonni qayta taqsimlanishi kabilar hali yaxshi rivojlanmaganligi bilan tushuntiriladi. Yana bu davr, qonning ivituvchi sistemasi to'la etilmaganligi bilan ifodalanadi va shu tufayli qon ketishini to'xtatishda uning roli kamdir.

Odatda katta yoshli sog'lom odam bir marta aylanayotgan qonining 20% yo'qotishi hayot uchun xavfli emas. Qonning 25-30% yo'qotish hayot uchun xavfli, 50% qonni bir yo'la yo'qotilishi o'limga olib keladi. Qon yo'qotganda, aylanayotgan qonning bosimi pasayadi. Qon bosimini 60 mm simob ustunidan pasayishi kollapsni paydo bo'lishiga olib keladi, markaziy nerv tizimi, yurak va boshqa hayotiy zaruriy organlarda qon aylanishi buziladi, ularda gipoksiya yuzaga keladi va nafas markazining falajlanishi oqibatida, o'lim sodir bo'ladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda o'tkir qon yo'qotish platsentaning shikastlanishi, kindik tizimchasi tomirlarining yorilishi, tugish davridagi shikastlanishlardan kelib chiqadigan, qon quyulishlar bilan bog'liqidir. Perinatal infeksiyalar, irsiy gemorragik diatezlar oqibatida, kindik ichak va a'zolardan qon yo'qotishlar paydo bo'ladi. SHuni unutmaslik kerakki, bolalarda qon yo'qotish kattalarga qaraganda og'irroq kechadi. CHakaloqlarda aylanayotgan qonning 10-15% yuqotish shokni alomatlarini paydo qilsa, katta yoshlarda 10% qonni yuqotilishi o'z holicha kompen-satsiya qilinadi. Katta yoshli bolalarda aylanayotgan qonning 30-40% ni yuqotish og'ir shok holatiga olib kelali, aylanayotgan qonning 50% ini bir yo'la yo'qotilishi o'lim bilan yakunlanadi. Biroq aylanayotgan qonning 50% ini sekin yo'qotish hayotga xavfli emasdir.

O'tkir qon yo'qotishni davolash, qon oqishini to'xtatishdan va aylana-yotgan hajmini me'yorini qon quyish va qonni o'rmini bosuvchi suyuqliklar quyishdan boshlanadi. Transfuziya bilan birgalikda yurak ishini yaxshilovchi dorilar, glyukoza-tuzli eritmalar yuborish, tomirlar devorini mustahkamlovchi dorilar buyuriladi.

Surunkali postgemorragik anemiyalar takroriy, kichik qon yo'qotishlar (hayz ko'rish, metroragiylar, oshqozon-ichakning yara kasalligida, bavosil-gemorraidal va boshqa qon yo'qotishlar) natijasida paydo bo'ladi. Bu anemiyalar asosan temir tanqisligi bilan bog'liq va shu sababli ularni temir defitsit anemiyalar guruhiga tahlil qilinadi. Bolalarda, surunkali postgemorragik anemiyalar kattalarga nisbatan kam uchraydi. SHuni qayd qilish kerakki, bola organizmida qonning miqdori anchagina ko'p bo'lishiga qaramay, kompensator mexanizmlari tufayli bunday anemiyalarga o'tkir postgemorragik anemiyalarga qaraganda osonroq moslashadi.

GEMOLITIK ANEMIYALAR

Sog'lom organizmda eritropoez (eritrotsitlarni yaratilishi) bilan eritrodieren (eritrotsitlarni parchalanishi) o'rtasida dinamik muvozanatning mavjudligi, periferik qonda eritrotsitlarning mikdorini doimiyligini ta'minlaydi. Eritrotsitlarning parchalanishi (gemolizi) ularni hosil bo'lishi va qonga tushishdan ortiqroq hollarda anemiyalar paydo buladi.

Gemolitik anemiyalar irsiy va orttirilgan bo'ladi.

Irsiy gemolitik anemiyalar qandaydir irsiy defekt tufayli eritrotsitlarning muddatidan ertaroq (meyorda eritrotsitlar 100-120 kun yashaydilar) parchalanishi, yashash davrining qiskarishi bilan ifodalanadi. Gemoliz ko'pincha hujayra ichida sodir bo'ladi. Irsiy gemolitik anemiyalar, eritrotsitlar membranasining patologiyasi bilan (irsiy membranopatiyalar) yoki eritrotsitlar fermentlarining defitsiti bilan (irsiy fermentopatiyalar), hamda gemoglobinning tuzilishi va sintezini irsiy o'zgarishi (irsiy gemoglobinopatiyalar) yoki gemoglobinozlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Irsiy membranopatiyalar

By anemiyalar uchun eritrotsitlar qobig'i tarkibidagi oqsil va lipoid moddalarning anomaliyasi xarakterli bo'lib, bu hol eritrotsitlarning shaklini o'zgarishiga va ularni muddatidan ertaroq gemoliziga olib keladi. Bu guruh anemiyalarning yorqin namoyondasi bo'lib, irsiy mikrosferotsitoz (Minkovskiy-SHofar kasalligi) hisoblanadi. Kasallikning asosida, eritrotsitlar membranasini tashkil qiluvchi oqsilning genetik defekti yotadi, bu esa membrananing natriy ionlari va suvgaga nisbatan o'tkazuvchanligini oshishiga imkoniyat yaratadi, natijada eritrotsitlar bo'kib, mikrosferotsitlarga aylanadi. SHu bilan birga membranalarda glikoliz jarayoni faollashadi va fosfolipidlar metabolizmining sur'ati ortadi. Mikrosferotsitlarning elastikligi yo'qoladi, ular taloqda ushlanib qoladilar va shu organda shiddatli parchalanadilar. Qonda teskari (bog'lanmagan) bilirubin yig'ilib, sariqlik paydo bo'ladi. Mikrosferotsitlarning yashash davri qisqarib, bor yo'g'i 8-14 kunni tashkil

qilishi mumkin. Irsiy mikrosferotsitoz yosh bolalarda (emuvchi va neonatal davrlarda) namoyon bo‘lishi mumkin va o‘ta sariqlik alomati bilan harakterlanadi.

Kasallikni davolash asosan ikki xil usulda olib boriladi:

I) Konservativ davolash, u asosan bilirubin intoksikatsiyasiga qarshi

yo‘nalgan, gemodinamik va metabolik o‘zgarishlarni me’yoriga qaytarishga qaratilgan bo‘ladi. Og‘ir anemiyalarda gemotransfuziya, asosan eritrotsitar massa qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

2) Splenoektamiya, bu yagona radikal davolash usuli hisoblanadi.

Eritrotsitlarning irsiy defekti (nuqsoni) yo‘qotilmay, ularni ushlab qoluvchi (filtrlovchi) taloqning faoliyati to‘xtatiladi va natijada periferik qonda nuqsonli eritrotsitlar ancha uzoqroq aylanib yuradilar

Irsiy enzimopatiyalar

By kasallik guruhi har kanday yoshda namoyon bo‘lishi mumkin. Kasallikning asosini, fermentlarning irsiy anomaliyasi tufayli paydo bo‘lgan, surunkali gemolitik jarayon tashkil qiladi. Bu anemiyalardan eng yaxshi o‘rganilgani glyukoza-6-fosfat degidrogenaza fermentining etishmovchiligi (defitsiti) bilan aloqador enzimopatiyadir. Bu anemiya O‘rta Osiyo va Kavkaz orti respublikalari hududida uchraydi. SHu erlarda ilgarilari bezgak keng tarqalgan edi va aynan enzimopatiyalar bilan og‘riqanlarda esa bezgak kasalligi bo‘lmas edilar. G-6-FDG ning defitsiti eritrotsitlarda qaytarilgan glutationning kamayishiga va har xil oksidlovchi moddalar, bezgakka qarshi dorilar, PASK, ftivazid, ot loviyasini ovkatga iste’mol qilish yoki u gullaganda gul changini hidlash) ta’sirida eritrotsitlarning mustahkamligini kamayishiga olib keladi.

Klinik jihatdan gemolitik anemiyalarning bu turi ham bolalarda va hamda katta yoshlilarda namoyon bo‘lishi mumkin. Kasallik asosida surunkali gemolitik jarayon yotadi va uning ifodasi sifatida har xil darajadagi regenerativ-degenerativ tipdagi anemiya, yorqin retikulotsitoz, qonda bog‘lanmagan bilirubinning ortishi, taloqning kattalashishi kuzatiladi.

Bu anemiyalarni davolashda gemolizni chaqiruvchi omilni aniqlash muhim axamiyatga ega. Agar anemiya bolalarda ychpaca, ota-onalarini anemiyalarni qo‘zg‘ovchi birlamchi moddalar bilan tanishtirish maqsadga mos keladi.

Irsiy gemoglobinopatiyalar

Hozirgi vaqtida fizik-kimyoviy hossalari va aminokislotalar tarkibi bilan farqlanuvchi, 50 ga yaqin gemoglobinlar turlari ma’lumdir. SHulardan 3 xili normal (me’yor) gemoglobinlir. Bular primitiv NvR, homila (fetal) - NvG⁺, va NvA - (katta yoshlilar) gemoglobini nomi bilan yuritiladi.

Zamonaviy tasavvurlarga qaraganda, gemoglobinozlar (gemoglobinopatiyalar)ning paydo bo‘lishi, polipeptidlarni sintezini boshqaruvchi struktura va regulator genlarning mutatsiyasi okibatida bo‘ladi, bu esa anomal

tuzilishli gemoglobinni paydo qiladi. Gemoglobinozlardan eng ko‘p uchraydigani va eng yaxshi o‘rganilgani, o‘roqsimon hujayrali anemiya bilan talassemiya hisoblanadi.

O‘roqsimon hujayrali anemiya gemoglobinning β -zanjirida, glyutamin kislotasini valin bilan almashinushi tufayli NvS hosil bo‘lishiga olib keladi. Atrof muhitda kislodning parsial bosimini pasayishi kasallik uchun xos bo‘lgan hususiyatni, ya’ni eritrotsitlarning shaklini o‘zgarishini (o‘roqsimon eritrotsitlarni) paydo qiladi. Kasallik faqat gomozigot (NvS) hollarda uchraydi, geterozigotlar (NvA) esa amaliy jihatdan sog‘lom hisoblanali.

DEFITSIT ANEMIYALAR

Bu guruh anemiyalarga eritropoezni me’yorida bo‘lishi uchun zarur omillar: temir, vitamin B12 va folat kislota hamda oqsil kabilarning yetishmasligi oqibatida paydo bo‘ladigan anemiyalar kiradi.

Temir yetishmasligidan paydo bo‘luvchi anemiyalar.

Bu anemiyalar bolalar va katta yoshli insonlar orasida juda keng tarqalgan patologiyadir. Bolalar orasida bu 10% dan to 70% gacha uchraydi, ayniqsa 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smlar orasida ko‘p uchraydi. Temir organizmda har xil oqsillar tarkibiga, hususan gemoglobin tarkibiga kiradi. Gemoglobinning temir tutuvchi qismi gemdir. Bu moda, temirni porfirin halqasi bilan hosil qilgan mustahkam birikmasidir, u faqat gemoglobinning tarkibidagina bo‘lmay, balki mioglobin, sitoxrom, katalaza kabilarda xam bo‘ladi. Temir gem bo‘limgan shaklda fermentlar va oqsillar (ferritin va transferin) tarkibiga kiradi.

Homila organizmda temirni to‘planishi, homiladorlikning boshlang‘ich davrlaridanoq boshlanadi va ona organizmdan platsenta orkali ro‘yobga chiqadi. Homilada temir to‘planishing maksimumi, ona qornidagi taraqqiyotining oxirgi davriga to‘g‘ri keladi. Tug‘ilgandan so‘ng, bola temirni ovqat bilan qabul qiladi va uning so‘rilishi asosan o‘n ikki barmoqli ichakda va ingichka ichakning yuqori qismida sodir bo‘lali. Ovqat tarkibidagi hamma temirning 10% ni o‘zlashtiriladi holos. Biroq, go‘shtli mahsulotlar tarkibidagi gemning temiri, o‘simliklar tarkibidagi Fe ga qaraganda osonroq so‘riladi. Gemsiz temirning so‘rilishi uchun oshqozon shirasidagi xlorid kislotaning bo‘lishi zarur, chunki u temirni G‘e3dan G‘e2 holatga aylantiradi. SHu yo‘sinda uning so‘rilishi osonlanashadi. Gemli temirning so‘riliш jarayoni, o‘n ikki barmoqli ichakdagi ishqoriy reaksiyaga bog‘liq. U erda temir porfirin tuzilishda so‘riladi va ichakning shilliq pardasigina porfirinsan ajralib, ionlashgan shaklga aylanadi. Qon plazmasiga temirning o‘tishi fermentli reaksiyalar bilan bajariladi, qonda esa uni transport qilinadigan shakli - transferrin hosil bo‘ladi. Transferrin faqat ekzogen temirnigina emas, balki: endogen temirni (eritrotsitlarni parchalanish jarayonida hosil bo‘luvchi) ham suyak ko‘migi va boshqa organ-depolarga etkazib beradi. Organizmning temir jamg‘armasi gemoglobinni temirdan, jigar, taloq, mushaklar, suyak ko‘migi tarkibidagi ferritin va gemosiderindan, yana transferrin bilan

bog'langan temirdan, mioglobin, temir tutuvchi fermentlar va biokatalizatorlardagi temirlardan tashkil topadi.

Temir organizmdan najas, siydik, ter va tabiiy qon yo'qotish jarayonida ajratiladi.

YUqorida keltirilganlardan ko'rindiki, temir etishmasligidan paydo bo'luchchi anemiya quyidagi mexanizmlar bo'yicha rivojlanadi:

1) Bolalarda temir defitsit anemiyaning eng asosiy sababi temirni ovqat tarkibida (alimentar) etarli emasligidir, hususan shunday hol yosh bolalarda sun'iy ovqatlantirish oqibatida sodir bo'ladi.

Ma'lum bo'lishicha, sigir suti vaqtning asosida tayyorlangan ovqatlar tarkibidagi temirning so'riliishi, onaning sutidagi temirni so'rilihidan 2-3 marta kamdir.

2) Temir defitsit anemiya ikki yoshgacha bo'lgan chala tug'ilgan bolalarda yoki katta massali bolalarda paydo bo'ladi. Ko'p embrionlik homiladorlikdan tug'ilgan bolalarda ham shu anemiya yuzaga keladi, chunki onada homiladorlik davrida temir tanqisligi, asosan toksikozni yuzaga kelishi, gipoksiya, kon yo'qotishlar, homila organizmida temirni jamg'arilishiga to'sqinlik qiladi.

3) Temirga nisbatan talabni ortishi homiladorlik, laktatsiya (emizuvchi ayollarda), sepsis, o'sishning tezlashishi, jarrohlik operatsiyasi o'tkazilgan kasallarda paydo bo'ladi va anemiyaga olib keladi.

4) Enterit, gastroenterit, enterokolit, duodenit, seliakiya, mukovissedoz, ekssudativ diatez, ichakning reaksiyasi kabilarda temirni oshqozon-ichak yo'llarida so'riliishi buziladi.

5) Gipo- va anatsid holatlar, gipovitaminozda temirning ionlashishi buziladi. Askorbin kislota esa, ikki valentli temirning barqarorligini ta'minlaydi (uch valentli temir organizmda o'zlashtirilmaydi).

6) Surunkali qon ketishlarda, qizlarda balog'atga etish davrida (jinsiy funksianing rivojlanish davrida), kuchli jismoniy zo'riqishlarda, issiq iqlimli sharoitlarda, yuqori haroratli korxonalarda ishlash kabilarda organizmdan temir ko'p mikdorda yo'qotiladi.

7) Jigar shikastlanganda temirni depolanishi buziladi, chunki gepatotsitlar temirni qon zardobidan shimib oladi va yig'adi.

8) Suyak ko'migidagi eritroblastlarda fermentlarning etishmasligi tufayli temirning o'zlashtirilishi buziladi. Bunlay holatda qon zardobidagi temirning miqdori meyorida, hatto ortgan bo'ladi. Qolgan hamma temir defitsit anemiyalarda esa qon plazmasidagi temirning, miqdori kamayishi (sideropeniya) kuzatiladi. SHuning uchun bunday kasallarga temirli dorilarni buyurish foydali ta'sir qilmaydi. Boshqa sabablardan paydo bo'lgan temir defitsit anemiyalarda esa temirli dori-darmonlar juda yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Temirning defitsiti (etishmovchiligi) eritropoezni samaradorligini kamaytiradi; eritro-, normoblastlarda gemoglobinni sintezi buziladi. Qizil qon tanachalarining

gemoglobinlanishini etarli bo‘lmasligi eritrotsitlarning etilishini buzilishiga va ularni qon-tomir o‘zaniga chikishiga olib keladi. Bundan tashqari eritrotsitlar suyak ko‘migida gemolizga uchraydi.

Bu anemiyada rang ko‘rsatkichi gipoxrom bo‘lib 0, 6-0, 5 hatto undan ham kamdir, chunki eritrotsitlarning soniga qaraganda ulardagи gemoglobinning mikdori anchagina kamdir. Qon yaratish esa normoblastik (suyak ko‘migida) tipdadir. Qonning morfologiyasi eritrotsitlarning yorkin gipoxromiyasi bilan ifodalanadi. Eritrotsitlar orasida poykiliotsitoz, anizotsitoz ayniqsa mikrotsitoz uchraydi, ya’ni eritrotsitlarning degenerativ patologik shakllari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Eritrotsitlar orasida retikulotsitlarning sonini ko‘payishi temir defitsitli anemiyali kasalni muvaffaqiyatli davolanayotganini ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Ma’lum bo‘lishcha, shu anemiya bilan kasallanganlarni to‘qimalarida ham temirni defitsiti paydo bo‘ladi. By holatning belgilariga tirnoqlarni sinuvchanligi, sochlarning to‘kilishni, oshqozonning shilliq pardasi atrofik jarayonlari kiradi. Atrofik gastrit esa temirning so‘rilishini buzilishiga sababchi bo‘ladi, anemiya esa yanada og‘irlashadi.

Vitamin B12 va folat kislota defitsitli anemiyalar

Bu anemiyalar eritropoezni me’yordaligini (normal) ta’minlovchi zarur omillarning etishmovchiligi oqibatida paydo bo‘ladi, ularning defitsiti tufayli qon yaratish normoblastik o‘rniga megaloblast tip bilan almashadi.

Vitamin B12 (Kaslning tashqi omili) ilk bor 1948 yili xom jigardan ajratib olingan. Ovqat bilan (go‘sht, tuxum, jigar va boshkalar) tushuvchi vitamin B12 oshqozon shirasi tarkibidagi gastro-mukoproteinlar (Kaslning ichki omili) birikib, proteinsiankobalamin kompleksini hosil qiladi. Bunday holatda vitamin B12 ichakning yuqori qismidagi ta’sirchan mikroblar muhofaza qilinadi va ichak devoridan osongina so‘riladi. Vitamin B12 ning asosiy so‘riladigan joyi yonbosh ichakning pastki qismlariga to‘g‘ri keladi, hamda u jigarda depolanadi. Jigarda vitamin B12 folat kislotaga ta’sir qilib, uni tetragidrofolat kislotaga aylantiradi, bu modda esa nuklein kislotalar sintezida ishtirok etadi va shu tufayli hujayralarning bo‘linishi jarayoni sodir bo‘ladi.

Vitamin B12 va folat kislota etishmasligi nuklein kislotalarning sintezini buzilishiga olib keladi, bu hujayralar bo‘lishishining buzilishi va hujayralar o‘lchamlarining kattalashuvi bilan namoyon bo‘ladi. Birinchi navbatda, tez bo‘linayotgan qon hujayralari va oshqozon-ichak yo‘lining hujayralari zararlanadi. Bu hujayralarda aminokislotalarni almashuv sur’ati nihoyatda tezdir. Qon yaratuvchi to‘qmalarda mitotik jarayonning buzilishi okibatida qon hujayralarining yiriklashuvi kuzatiladi. Bularga qon yaratuvchi uch kurtakka mansub bo‘lgan megalotsitlar, megaloblastlar (eritropoez), nihoyatda yirik polisegment yadroli neytrofillar (milopoez) va juda yirik megakariotsitlar (tromotsitopoez) kiradi.

Oshqozon-ichak yo‘lining shikastlanishi ularning shilliq pardasining atrofik yallig‘lanishi bilan namoyon bo‘lali. Bunda glossit (tilning qip-qizil silliq holati), - enterit, kolit kabilar paydo bo‘ladi.

Gematologik va gastroenterologik alomatlardan tashqari nevrologik o‘zgarishlar ham paydo bo‘ladi, chunki orqa miyaning orqa yon ustunlarida funksilyar mieloz deb nom olgan, degenerativ shikastlanish sodir bo‘ladi.

Vitamin B12 va folat kislota defitsit anemiyaga olib keluvchi etiologik omillar ichida eng ahamiyatlilari quyidagilardir:

1. Vitamin B12 o‘zlashtirilishining buzilishi. Bunday holat oshqozonining gastromukoprotein ishlab chiqaruvchi hujayralari funksiyasining buzilishi oqibatida yuzaga keladi. SHu hujayralar funksiyasining pasayishi ularga autoantitelolar ta’sirining natijasidir. Bunday holat asosan Adisson-Birmer kasalligida (pernitsioz anemiyada) kuzatiladi. SHuningdek gastromukoproteinning etishmaslik holatlari total va subtotal oshqozon reaksiyasidan 2-8 yil o‘tganda ham paydo bo‘lishi mumkin.

2)Vitamin B12 va folat kislotaning defitsiti ularning ingichka ichakda so‘rilishining buzilishidan kelib chiqadi. Bunday holat ichakning rezeksiyasida, uning o‘sma bilan shikastlanishida, divertixullalarda, spruda, seliakiya (ingichka ichakning tug‘ma Epiteliopatiyasi)da kuzatiladi. Bu guruh kasalliklar ichida, ingichka ichakning keng tasmasimon chuvalchang bilan invaziysi alohida o‘rin egallaydi, chunki u parazit vitamin B12 ga o‘ch bo‘lib, inson-ho‘jayin bilan vitaminni talashadi. Biroq chuvalgangni yonbosh ichakdan pastroqda joylashishi anemiyaga olib kelmaydi.

3)Ko‘pincha anemiya homilador ayollarda paydo bo‘ladi. Buning sababi homilada embrional qon yo‘qotishning normoblastik tipi bilan almashishi eritropoetik moddalarga bo‘lgan ehtiyojni ortishini talab qiladi.

4)Jigarning gepatit va sirroz kabi shikastlanishlari anemiya paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu jigarda vitamin B12 va folat kislotalarning jamg‘arilishini buzilishi va folatlar metabolizmining o‘zgarishi oqibatida sodir bo‘ladi.

5)Bolalarda anemianing asosiy sababi vitamin B12 ni ekzogen tanqisligi bo‘lib, u go‘daklarni quritilgan sutli aralashmalar yoki echki suti bilan ozirlantirilganligi bilan bog‘likdir.

6)Nihoyat ba’zi hollarda anemiya suyak ko‘migining vitamin B12 va folat kislotani o‘zlashtira olmaslik oqibatida paydo bo‘lishi mumkin. Bunday holat asosan folat kislotani koferment shakliga aylanishida ishtirok etuvchi fermentlarning irsiy defekti bilan bog‘liqidir.

Qonning ko‘rinishi. Bu anemiyani ifodalovchi eng asosiy alomat eritrotsitlarning miqdorini kamayishidir. Bular eritrotsitlarni old hujayralardan ko‘payishi va etilishini susayishi bilan bog‘liq, qon yaratish normoblastik (suyak ko‘migi) tipidan megaloblastik tipga aylanadi, eritropoezni samaradorligi kamayadi, eritrotsitlarning yashash muddati qisqaradi. Periferik qonda patologik regeneratsiya


hujayralari (megalotsitlar, megaloblastlar) bilan birga degenerativ hujayralar ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Megaloblastlarni megalotsitlargaacha etilishi buziladi.

Xulosa: Anemiya kamqonlik bo’lib uni vaqrtda davolamaslik juda og’ir kassaliklarni kelib chiqishiga sabab bo’ladi. Xususan qonda eritratsitlaning kamayishi sababli kislarodning qondagi miqdoriga tasir qiladi va gipoksiya rivojlanadi. Periferiyadagi organlarning (qo’l barmoqlari, oyoq barmoqlar, uchlari) sovuqqotishi, jimirlashi va uyushib qolishlari ham kuzatiladi. Shuning uchun har birimiz salomatligimizga be e’tibor bo’lmasligimiz, ze’ro „Tan salomati – jon rohati” ekanligini unutmasligimiz lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abdullayev N. H., Karimov H.Y., Irisqulov B.U. Patologik fiziologiya. - Т.: Yangi asr avlodи, 2008. - 480 bet
2. Azimov R.Q. Patofiziologiya. – Т., 2010. – 292 б.URL
4. Патофизиология: учебник: Ю.В. Быць, Г.М. Бутенко, А.И. Гоженко и др. / под ред. Н.Н. Зайко, Ю.В. Быця, И.В. Крышталя. К.: ВСИ "Медицина", 2015. - 744 с. + 4 с. цветн.
7. Robbins and Cotran. Pathologic Basis of Disease, - Ninth Edition. - Professional Edition. Textbook. Philadelphia.CurrMol Med., 2015. – 1392 bet

KASB TANLASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI



Vahabova O'g'ilxon Tolibjonova

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrasи katta o'qituvchisi

Vaxobovaogiloy@gmail.com

+998 93 065 00 21

Akbarova Dilafruz

Andijon Davlat Pedagogika Instituti.

Pedagogika fakulteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb-hunarga yo`naltirish, yosh avlodlarni kasb hunarga tayyorlash faoliyati, kasb tanlashdagi omillar, ish paytida kim yoki nima bilan munosabatda bo'lishingizga qarab kasblarning turlari va Sharq mutafakkir allomalarimizning fikrlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish haqida psixologlarni tavsiyalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, ijtimoiy muhit, kelajak, jamiyat, qiziqish, milliy qadriyatlar, yaxshi daromad, fikr-mulohaza.

Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy va madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta`lim jarayoni, kadrlar tayyorlash tizimini ham tubdan yangilash hamda rivojlantirishni talab etadi. Shu boisdan ta`lim tizimini zamon talablari darajasida va erishilgan tajribalar asosida rivojlantirish orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, har tomonlama etuk va yuksak ma`naviyatli, komil insonlar etib tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan hisoblanadi.

Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo`lgan masala hisoblanadi[1], – deb ta`kidlagan Sh.M.Mirziyoyev. Shunday ekan, yoshlarning, kelajak avlodning kasbiy etukligi, to`g`ri kasb tanlashi va mohirona olib borishiga e'tibor qaratilishi hozirgi kunnig dolzarb masalalaridandir. Ilk o`sipinlar mustaqil hayot sohasida yaqin istiqbolga ega bo`lar ekanlar, o`zlarining hayot yo'llarini belgilab olishga, bundan keyingi mehnat faoliyatlarining aniq istiqbollarini aniqlab olishga, o`zlarining kelgusi ixtisoslarini tanlashga intiladilar. Shu munosabat bilan kasb-hunarga oid qiziqishlar tarkib topadi va yanada barqarorroq bo`lib qoladi, yigit va qizlar o`z kelajaklari haqida jiddiyroq o`ylay boshlaydilar. Katta yoshdagi maktab o`quvchilaridan biror o`quv faniga ishtiyq natijasida ularga har – xil kasblarga qiziqish vujudga keladi. Kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil

ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida shakllantirishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko'maklashadi. Kasbga yo'naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashining ilmiyamaliy tizimi sifatida qaralishi lozim. Bunda har bir shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish, xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mehnat zahiralari bilan to'laqonli ta'minlash zarurati kabi omillarni e'tiborda tutish joizdir[2].

Kasb hunarga yo'naltirish, yosh avlodlarni kasb hunarga tayyorlash faoliyati haqida ta'rif aytsak ijtimoiy kasbga yo'naltirish, yoshlarni kasbni tanlashga tayyorlash va ularni jamiyatdagi o'rmini egallashi deb ta'riflasak mubolag'a bo'lmaydi. Kasbga yo'naltirishning uslubiy masalalari qatoriga kasb hunarga yo'naltirish tizimini aniqlash va rivojlantirish masalalari ham kiradi.

Kasbiy yo'nalish shaxsiy xususiyatlardan boshlab rivojlanish mantiqiy bo'lgan martaba yo'nalishini tanlashga yordam beradi. Kasbga yo'naltirishning mohiyati yashirin iste'dod va mayllarni topish, odamning aynan nima qilishni xohlashini aniqlash va mos kasblarni tanlashdir. Har bir inson maqsadi va orzu istaklariga qarab kasbga va hunar egasi bo'lishga intiladi. Inson kasb tanlashiga quyidagi omillar ya'ni qadiriyatlar sabab bo`ladi:

- jamiyat va ijtimoiy muhit;
- qarindosh urug'i, do'stlari, oilasi;
- o'z bilim, ko'nikma, malaka;
- o`z-o`zini nomoyon qilish va qiziqishlari;
- moddiy va amaliy, milliy qadiriyatlar;
- yaxshi daromad;
- shaxsni qanoatlantiradigon lavozim va lavozimga ko'tarilish istiqboli kabilardir[3].

Klimovning so'zlariga ko'ra, ish paytida kim yoki nima bilan munosabatda bo'lishingizga qarab, dunyodagi barcha kasblarni besh turga bo'lish mumkin:

1. Inson — inson. Siz doimo odamlar bilan muloqot qilishingiz kerak bo'lgan kasblar: shifokor, o'qituvchi, nutq terapevti, massajchi, kotiba, sotuvchi, siyosatchi.
2. Inson — san'at. Bular ijodiy odamlar - aktyorlar, yozuvchilar, musiqachilar, rassomlar. Bu mutaxassisliklar bo'yicha xayoliy fikrlash, san'at qobiliyati, shuningdek, qat'iyatlilik, mehnatsevarlik va tartib-intizomsiz amalga oshirib bo'lmaydi.
3. Inson — texnologiya. Bular muhandislar, konstruktorlar, mexaniklar, quruvchilar, ovoz texniklari, sozlagichlar - amaliy fikrlaydigan odamlardir.
4. Odam — ishora tizimi. Belgilar raqamlar, kodlar, chizmalar, sun'iy tillar va ular bilan ishlaydigan odamlar dasturchilar, tilshunoslar, arxitektorlar, brokerlardir. Bunday mutaxassisliklar uchun qat'iyatlilik va ehtiyyotkorlik muhimdir.

5. Inson — tabiat. Bu jonli va jonsiz tabiat bilan bog'liq kasblar - o'simliklar, hayvonlar, yer, kosmos: veterinar, astrofizik, geolog, yangi bakteriyalar o'stiradigan texnolog[4]. Ushbu kasblar vakillarini tabiatga bo'lgan faol sevgi birlashtiradi: hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, ularga g'amxo'rlik qilish, qazilmalarni o'rganish yoki o'simliklarni o'stirish kabilar shular jumlasidandir.

Endi esa kasb-hunar tanlash, kasbga yo'naltirish to'g'risida Sharq allomalarimizning fikrlariga nazar solsak. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlarni bergenlar, chunonchi ta'lim-so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytgan. Bu mulohazalardan ko'rinish turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan. Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug'ma emasdир, aks holda uning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda podshohlar ham o'zлari ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiy bo'lib qolar edi.

Abu Rayhon Beruniy inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm aqli-olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, hayrihoh bo'lishga chaqiradi, ularni ma'rifat tarqatuvchilar jamiyat ravnaqiga hissa qo'shuvchilar deb biladi. Beruniy bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga o'rgatish kerak, deydi.

Abu Ali ibn Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina otasi uni uylantirib qo'ymoqi lozim, deb hisoblaydi[5].

Sharq allomalarimizning fikrlariga tayangan holda, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish haqida psixologlarni quyidagi tavsiyalarini eslab o'tish joiz deb bildim;

1. O'zingizni sinab ko'ring. Aksariyat kasb tanlash bosqichida bo'lganlar faqat bitta narsani bilishadi. Undan keyin nima qilish kerakligini umuman bilmasliklari barchamizga ayon. Shuning bilan birga qaror qabul qilish natijasida o'ziga xos qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Buning uchun sizga tanlagan kasbingizga mos yoki mos kelmasligingizni aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan testlarni maslahat beramiz. Shuni unutmang, siz bir vaqtning o'zida 3-4 ta testdan o'tsangiz, ularning natijalari mutlaqo bir-biriga teskari bo'lishi mumkin. Bunday paytda siz kasbga yo'naltirish bo'yicha qulay testni tanlashingiz lozim. Psixolog E.Suslovaning fikriga ko'ra, test

to‘plami mazkur soha mutaxassislari tomonidan tayyorlanish hamda individual ravishda tanlashi kerak. Shuni esda tutish kerakki, test natijalariga “hukm” deb qarash kerak emas. Biz psixik xususiyatlar va intellektni hisobga olgan holda aniq bir faoliyat turiga nisbatan moyillik xususida fikr yuritamiz.

2. Bilimlaringizni kengaytiring. Mazkur muammoni biroz osonlashtirish maqsadida siz mehnat faoliyati va undagi yo‘nalishlar, istiqboli mavjud bo‘lgan soha va mutaxassisliklar to‘g‘risida bilimlaringizni mustahkamlashingiz kerak. Har yili o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha kitoblar nashr qilib boriladi. Ularda siz hattoki, maktab o‘quvchilari ko‘pincha bilmaydigan kasblar bilan ham tanishishingiz mumkin. Ehtimol ulardan qaysi biridir sizning tanlovingiz bo‘lishi mumkin.

3. Kasblar bilan yaxshiroq tanishib chiqing. Maktabni bitirish arafasida o‘spirin kasblar haqida xato va noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘ladilar. Ko‘pincha ular tanlagan kasblarini faqat ijobjiy tomonlarini yoki aksincha salbiy jihatlarini ko‘radilar. Buning uchun ota-onalar farzandlariga ko‘p narsalarni aniqlab olishlari uchun yordam berishlari kerak. Shuning uchun 9-sinfdan boshlab asta-sekin o‘zingiz tanlagan yo‘nalishingiz bilan tanishish maqsadida institut va universitetlardagi “Ochiq eshiklar” kuniga tashrif buyurishni unutmagan holda qaror qabul qilishingiz lozim.

4. O‘z xohishlaringizni tizimlashtiring. Ba’zi soha mutaxassislari maslahat bergenidek, o‘zingiz uchun stol tayyorlappingiz mumkin. Sizni yuragingizga yaqin bo‘lgan kasblarni vertikal ravishda va faoliyatizingizda nimani xohlasingizni gorizontal ravishda joylashtirishga harakat qiling. Jadvalni iloji boricha bat afsil to‘ldirishingiz kerak. Agar tanlagan kasb sohasi va ishga qo‘yilgan talablar bir-biriga mos keladigan bo‘lsa, “+”, agar mos bo‘lmasa “-” ishoralarini qo‘yishingiz lozim. Shunday qilib, tanlovnim amalga oshirishga yordam beradigan yoki tanlov doirasini va fikrlarni sezilarli darajada aniqlashga qaratilgan tasvir shakllantiriladi.

5. So‘zdan amalgacha. Shunday qilib, biz biror narsa to‘g‘risida qaror qildik yoki biror narsani tanladik. Endi siz o‘zingizni sinab ko‘rishingiz kerak. Buning uchun turli o‘quv-guruahlari bo‘lgan ko‘plab ixtisoslashgan maktablar va kurslari mavjud bo‘lib, ular sizga transport vositalarini mexanikasidan tortib, tadbirkorlikkacha o‘zingizni sinab ko‘rish imkoniyatini beradi. Mazkur ta’lim muassasalarining aksariyat qismida darslar bepul amalga oshiriladi.

6. Zaxira aerodromi. Sizni o‘zingiz xohlagan aniq tanlovingiz bo‘lishi bilan birga har holda qo‘srimcha ravishda e’tiborga olishingiz kerak bo‘lgan kasbingiz ham bo‘lishi kerak. Hayotni oldindan aytib bo‘lmaydi chunki har qanday narsa yuz berishi mumkin. Shu bois, tanlagan universitet va yo‘nalishingizga qobiliyatlarining mos kelmaganligi sababli kira olmay ko‘nglingizda jarohat hosil bo‘ladi. Siz shunchalik ertalab uyg‘onishingiz mumkin va o‘zingizni tanlovingizdan xafsalangiz pir bo‘lib, uni o‘zgartirishga harakat qiling.

7. Qaror faqat mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Ota-onangiz tomonidan beriladigan maslahatlar foydali lekin ularni fikri yakuniy qaror bo'lmashligi kerak. Psixologlarning ta'kidlashicha, biz ko'pincha atrof-muhitga, qarindoshlar, o'qituvchilar, do'stlarimizga e'tibor qaratamiz. Odatda bunday vaziyatda ikkita yo'lidan boramiz ya'ni ularning fikriga amal qilamiz yoki aksincha. O'zi o'smir uchun nima kerak? Masalan, ona butun hayot davomida o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullandi lekin u bu faoliyatidan allaqachon voz kechish kerak edi. Endi o'zi xohlagan narsasiga qizi orqali erishishiga harakat qiladi. Bunday vaziyatda qanday yo'l tutish kerak? Qarorni tinchlik yo'li bilan qabul qilishga harakat qiling. *Masalan*, raqs o'qituvchisi yoki ximiya o'qituvchiligidan qaysi birini tanlashingiz uchun ota-onangiz va do'stлaringizning maslahatlariga amal qiling. Baribir yakuniy qarorni o'zingiz qabul qilishingiz lozim.

8. Kasb tanlashda oilaviy an'anani davom ettirish shart emas. Siz o'zingizni ishingiz undagi imkoniyatlar qulayliklar shuning bilan birga farzandingiz uchun muvaffaqiyatli martaba haqida oldindan bashorat qilib gapirishingiz mumkin. Agar farzandingiz sizni yoki otasini kasbini davom ettirmoqchi bo'lsa bu juda yaxshi. Lekin majbur qilishning o'zi noto'g'ri[6]. Agar inson o'zi yoqtirmagan ishi bilan butun hayot davomida shug'ullangandan keyin o'zini baxtsizdek his qiladi.


Shunday qilib fikrlarimiz asosida quyidagi xulosalarni keltirib o'tamiz:

- oila a'zolaringiz va do'stлaringiz bilan maslahatlashilgan holda ularning fikriga ko'ra, siz tanlagan kasbingiz o'zingizga mos keladi;
- ommaviy axborot vositalari yangi kasb sohalari haqida ko'proq ma'lumot olishga yordam beradi va maxsus manbalar (adabiyotlar internet va boshqalar) sizga jamiyatda ehtiyoji yuqori bo'lgan yo'naliishlar haqida ma'lumotlar beradi;
- o'zingizni xohishingiz va hayotingizdagi ustanovkalaringizni esingizga oling;
- olingen materiallarni har tomonlama ko'rib chiqing, yaxshilab tahlil qiling va o'zingizga "Hayotda menga nima kerak?" degan savolga javob berishga harakat qiling.
- imkoniyatingiz bo'lsa, kasb tanlash bo'yicha malakali mutaxassis bilan maslahatlashishingiz zarur.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- [1]. Мирзиёев Ш.М Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» 2017. -136 б;
- [2]. Nishanova Z.T., Alimboeva Sh.T., Sulaymonova M.V. Psixologik xizmat. - Т.: 2014. -407 b;
- [3]. Vorobev A. I. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash metodikasi.–Т.: О'qituvchi. 1980;
- [4]. Карандашев В.Н. Психология введение в профессию. 2- е изд - М.: Смысл, 2003. - 19 с;
- [5]. Жалилова С. Х., Хайдаров Ф.И., Халилова Н.И. Касб психологияси. –Т: 2010. -17-б;
- [6]. <https://yuz.uz/uz/news/kasb-tanlash-ostonasida-bolgan-osmirlarga-psixologik-tavsiyalar>.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA NUTQ JANRLARINING O'RGANILISHI



*Maqsudova Feruza Jo'ravoy qizi
Andijon davlat universiteti
Lingvistika mutaxassisligi 2-bosqich magistri*

Annotation. Maqolada bugungi kun zamonaviy tilshunosligida ko'plab tilshunos olimlar qiziqishiga sabab bo'layotgan nutqiy janrlar, uning vujudga kelishi, tadqiq qilinishi, xususan, o'zbek tilshunosligida o'rganilishi, amalga oshirilgan ishlar hadagi fikrlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: janr, nutqiy muloqot janrlari, falsafa, kommunikativ maqsad.

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda "nutq janri" tushunchasi va nutq janrining lingvistik birliklari, xususiyatlarini o'rganish dolzarb muammolarda biri hisoblanadi. Tilshunos olimlar mantiq va nutqning aloqasi natijasida vujudga kelgan nutqiy muloqot janrlari masalasini an'anaviy tilshunoslik nuqta'yi nazaridan ko'rib chiqish nutqiy janrlar mohiyatini ochib berishi mushkul ekanligini, shu boisdan uni fanlararo tahlil qilish kerakligi maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydilar.. Nutq janrlarining qadim zamonlardan buyon mavjudligi haqidagi g'oyasalarining asosli ekankligi, shubhasiz. Chunki janr atamasi dastlab Aristotelning "Poetika" asarida qo'llanilgan. Bu haqda taniqli rus olimi V. Dementevning quyidagi e'tirofi ham fikrimizni tasdiqlaydi:" Aristotel davridan to janr so'zining nutqiy sistemaga oid tushuncha sifatida qabul qilinishi va uning asosiy birligi sifatida baholanishi haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan o'z tasdig'ini topgunga qadar mazkur so'z tor ma'noda – folklor, adabiy, amaliy san'at namunalari va ritorik janrlarni" ⁱ ifodalash uchun qo'llanilgan.

"XXI asrga kelib janr tushunchasining mazmuni kengaydi. U nutqiy sistemaga tegishli asosiy tushuncha sifatidagi mazmun bilan boyidi va o'ziga xos tarixiy taraqqiyotga ega bo'ldi. Uning mazmun-mohiyati 'zgarishini, asosan, tilshunoslik nuqtayi nazaridan shartli ravishda ikki davrga ajratish mumkin. XX asrning ikkinchi yarmigacha folklor, ritorik, amaliy san'at, kino, va adabiy turlarni atagan davr va XX asrning 50-yillaridan boshlab tilshunoslik sohasiga oid nutqiy janrlarni ifodalay boshlagan davr. Keyingi davrlarni tarixiy va zamonaviy talqin etish bosqichi deyish mumkin. V. Dementev ta'biri bilan aytganda, til va nutq orasida sayqallanib hosil bo'luvchi oliy sathdagi birlik sifatida e'tirof etilayotgan janr tushunchasi XXI asrga kelib shun qadar jadal sur'atlarda rivojlandiki, natijada oddiy tushunchadan mustaqil ilmiy nazariya darajasiga ko'tarildi. Bu esa tilshunoslikda nutqiy janrlar nazariyasi yangi, mustaqil lingvistik yo'nalish sifatida qaror topganligini bildiradi" ²

Nutqiy janrlar nazariyasi dunyo tilshunosligida tobora ommalashib, rivojlanib bormoqda. Rossiya, Avstraliya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Braziliya, Kanada, Fransiya, Shvetsya kabi bir qator yirik mamlakatlarda aniq maqsadga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar, ularning olg'a surayotgan g'oyalari samarali natijalarni berish bilan birga, ushbu yo'nalishning rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chet el tilshunoslari bilan bir qatorda XXI asrga kelib ozbek tilshunosligida ham bir qator tilshunos olimlar nutqiy janrlarga oid tadqiqotlar yaratdilar. Jumladan, T.Jo'rayev "Hozirgi o'zbek adabiy tilida epistolyar janrning til va uslubiy xususiyatlari", I.Xojialiyev "Tasvir nutq tipining lingvistik xususiyatlari", B.Jo'rayeva "Maqollarning lisoniy mavqeyi va ma'noviy-uslubiy qo'llanilishi", A.Abdusaidov "Gazeta janrlarining til xususiyatlari", N.Chinniqulov "Peshlavhalarning lisoniy xususiyatlari", M.Sulaymonov "O'zbek tilidagi dastxatlarning sotsiolingvistik tadqiqi", F.Xasanova "Ingliz va o'zbek tillarida qasamyod nutqiy janrining qiyosiy-tipologik tadqiqi", B.Abdullayev "O'zbek reklama lingvistikasi: nazariya va amaliyat" kabi mavzularda tadqiqotlar olib bordilar. Xususan, B. Abdullayev o'zining dissertatsiyasida o'zbek tilida reklamalarning shakllanish bosqichlari, reklama turlari, ularni vujudga keltiruvchi sabab va omillar, lingvistik birliklarning qo'llanilishi, ularning leksik-semantik xususiyatlari, reklamalardagi so'zlar semantikasi, ularda neologizm va onomastik birliklarning qo'llanilishi, reklama matnining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari, ularning grammatick xususiyatlari, tuzilishi, namoyish etish usullari, ulardag'i til hodisalari, reklama orqali ommaviy madaniyatning tasiri kabi bir qator dolzarb masalalarni yoritib bergen.

F.Xasanova "Ingliz va o'zbek tillarida qasamyod nutqiy janrining qiyosiy-tipologik tadqiqi" nomli ilmiy ishida nutqiy janrlarning tasnifiga to'xtalib, qasamyod nutqiy janrining mohiyatini, mavzuiy tasnifini, milliy-madaniy xususiyatlarini o'zbek va ingliz tillari misolida qiyosiy tahlil qilgan.

N.Chinniqulov o'zining "Peshlavhalarning lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida asosiy e'tiborni peshlavhalarning tarixiy

taraqqiyoti, ularda nolingvistik vositalarning o'rni, rasmiy va norasmiy peshlavhalar, neologizm va sinonim leksemalarning qo'llanilishi, peshlavhalarda qisqartmalarning berilishi, ularda tejamlilik va ortiqchalik, peshlavhalarda qaratqich-qaralmish munosabatining ifodalanishi, tinish belgilarining qo'llanishi kabi masalalarni yoritishga qaratgan.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutqiy janrlarning o'rganilishi jarayonida uning lingvistik, ijtimoiy jihatlari asosiy e'tibor markazida bo'lgan. Ilmiy yo'nalishlar va tadqiqotlarning umumiyligi esa ularning nutqiy janrni belgilashning dastlabki elementlari sifatida kommuninativ maqsad va nutqiy janr yaxlitligi, butunligi kabi ilmiy-nazariy qarashlarning mavjudligi bilan belgilanadi.

Zamonaviy tadqiqotchilarning qarashlariga ko'ra, nutq janri falsafaning universal toifasi sifatida baholanadi.Ular nutq janri yangi atropologik tilshunoslik metodlarining asosini tashkil qilishi kerakligini hisoblaydilar. M.M.Baxtinning fikriga ko'ra esa nutq janrlari jamiyat tarixidan til tarixiga yetakchi kamarkardir. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, g'arb tilshunoslari o'zlarining asarlarida kommunikativ maqsad yoki janrni shakllantiruvchi asosiy omil belgilanadigan kommunikativ munosabat ekanligini ta'kidlaydilar. Chunki kommunikativ maqsad har bir alohida janr uchun o'ziga xos xususiyatdir.U ana shu janrni o'zini hamda ichki tuzilishini shakllantiradi.Shuning uchun nutqiy janrlarni tahlil qilish jarayoni ularning kommunikativ mavjudligi asosida amalga oshirilishi kerak.Ya'ni bu jarayonda ijtimoiy hodisalar,vaziyatlar,harakatlar davomiyligi kabi jihatlar alohida e'tiborga olinishi darkor.

1 Дементьев В.В.Теория речевых жанров.(Коммуникативные стратегии культуры).-М 2010.-С.597.

2 Хасанова Ф. "Инглиз ва ўзбек тилларида қасамёд нутқиё жанрининг қиёсий – типологик тадқиқи", Фил . фан .фал. доктори (PhD) дисс.Тошкент , 2019.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

*Ибрагимова Гуласал Норбековна – учитель
Русского языка и литературы в школе № 324
Шайхонтохурского района города Ташкента.*

Аннотация: В данной статье представлена информация о современных технологиях и методах в обучении русскому языку.

Ключевые слова: современные технологии в обучении русскому языку, методика обучения, образовательные технологии.

Образовательные технологии – это эффективное использование современных информационных технологий в образовательном процессе. Также предусматривается повышение качества и эффективности образования за счет внедрения в образовательный процесс современных инновационных технологий. В частности, можно выделить ряд преимуществ использования таких информационно-коммуникационных технологий при изучении русского языка. Роль современных технологий в изучении и преподавании языков несравнима. Использование технологических средств полезно во всех аспектах изучения русского языка (чтение, чтение, аудирование и говорение). Например, чтобы слушать и понимать, конечно же, без компьютера, проигрывателя, CD-дисков этот процесс не осуществить. Понимание на слух является одной из самых важных частей изучения языка. При этом от читателя требуется обращать внимание на произношение говорящего, соблюдение грамматических правил, словарный запас и его значения. Важным фактором использования современных технологий в образовательном процессе является то, что обучающиеся хорошо знают информационно-коммуникационные технологии и умеют ими пользоваться. Преподавание и изучение русского языка с использованием современных технологий – один из самых плодотворных способов. В этом процессе, в том числе:

— при использовании компьютеров учащийся может смотреть и слушать видеоролики, демонстрации, диалоги, фильмы или мультфильмы на русском языке;

— можно слушать и смотреть радиопередачи и телепередачи на русском языке; - использование магнитофонов и кассет, которые считаются более традиционным методом; - Можно использовать проигрыватели компакт-дисков. Использование этих технических средств делает процесс изучения русского языка более интересным и эффективным для учащихся. В условиях

Gap yoki gap modeli jumlaning tipiklashtirilgan grammatik shakli, jumla esa uning muayyan vaziyat bilan bog‘langan nutqiy ko‘rinishidir. Gap modeli aniq jumlalar gavdalanishi, jumla esa shu gap modelining nutqda turlicha namoyon bo‘lishidir. Gap modeli yashash shakliga ko‘ra ijtimoiy, jumla esa xususiy belgiga ega. Gapning boshqa sintaktik birliklardan predikativlik belgisi orqali farqlanishi. Gapni kommunikativ birlik sifatida shakllantiruvchi vosita predikativlik ekanligi. A.Nurmonov, Sh.Iskandarova: o‘rik gulladi va o‘rikning gullahi. Birinchisida predikativlik bor, ikkinchisida yo‘q. Predikativlikning shaxs (son), zamon, mayl, tasdiq-inkor ma’nolari va bu ma’nolarni ifodalovchi shakllar yig‘indisidan tashkil topishi. U gapning asosiy grammatik kategoriyasi bo‘lib, u tasdiq, inkor, modallik (mayl), zamon, shaxs, son kategoriyalari sintezidan iboratligi. V.V.Vinogradov: predikativlik faqat gap bo‘laklari o‘rtasidagi aloqa bilan bog‘lik emas, bu xodisa ayrim bo‘laklarga bo‘linmay, butun bir gapga xos: Jim! Issiq tipidagi sintaktik qurilmalarda xam predikativlik mavjud. Bunday gaplarda u modallik, zamon va shaxs kategoriyalari orqali ifodalanadi. Ayrim tilshunoslar ega va kesimni bosh bo‘laklar, qolgan bo‘laklarni ikkinchi darajali bo‘laklar deb hisoblashligi. Asos: har bir gapdan ma’lum hukm anglashiladi. Hukm doimo sub’ekt va predikatning munosabatidan iborat. sub’ektga ega, predikatga kesim mos keladi. Qolgan gap bo‘laklari shu ikki konstitutiv birlikdan biriga bog‘lanib, informatsiya xajmini kengaytiradi. Ikkinchidan, gapning asosiy belgisi predikativlik ekan, predikativ asos bo‘lgan ega va kesim gapning konstitutiv birliklari (bosh bo‘laklar) bo‘ladi. An’anaviy tilshunoslik: har kanday gap tarkibida ega-kesim munosabati yotadi. Qolgan bo‘laklar ikkinchi darajali va ular gap mazmunini kengaytiradi. Gap bo‘laklarini belgilashda bosh mezon sintaktik birliklarning tobe aloqasi sanalishi. Bu aloqaga kirishmagan sintaktik birliklar gap bo‘laklari doirasidan chetda qolishi. Munosabat logikasiga asoslangan tilshunoslikda har qanday gapning mazmuniy asosi kesim hisoblanishi. [1] Gap bo‘laklari muayyan

sintaktik pozitsiyada bo‘lib, tayanch nuqta hisoblanuvchi kesimga (predikatga) bog‘lanishi. Tilshunoslik tarixida bir cho‘qqili nazariyaning (kesim) yuzaga kelishi bilan ana shunday markaz rolini kesim o‘ynashi haqidagi fikr keng tarqalganligi. Har qanday gap shakl va mazmun birligidan iborat bir butunlik ekanligi. Gapning sintaktik strukturasi sintaktik shakllar (gap bo‘laklari)dan iboratligi. Gapning semantik tuzilishi: -propozitiv; -modal; -kommunikativ uzvdan iboratligi. [Propozitsiya semantik tushuncha tarzida inson ongida aks etgan borliqdagi predmet va hodisalar o‘rtasidagi munosabat, borliqning muayyan vaziyati ekanligi]. Tilshunoslikda ko‘pchilik mutaxassislar gap semantikasida o‘z ifodasini topgan ob’ektiv mazmunni propozitsiya atamasi orqali ifodalashi.

A.Nurmonov, Sh.Iskandarova: O‘zaro munosabatda bo‘lgan predmet, hodisa, xususiyat, xarakat va h.k. birligidan tashkil topgan ob’ektiv borliqning alohida elementlar majmui gapning denotati hisoblanadi. Gap denotati bo‘lgan alohida elementlar ko‘pchilik adabiyotlarda vaziyat (situatsiya) atamasi bilan nomланади. Har qanday vaziyat turli elementlarning o‘zaro munosabatidan tashkil topgan bir butunlik - sistemadir. Til birligi sifatidagi gapning shakli deganda, predikativlikni ifodalovchi minimal birlik, ya’ni predikativ shakldagi predikat, uning mazmuni deganda esa predikativlikning mazmuniy uzvlari: temporallik (zamon ma’nosи), personallik (shaxs ma’nosи) kabilar tushuniladi. Hozirgi davrda o‘zbek tilining barcha sathlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari mavjudligi. Oliy ta’lim tizimida talabalar uchun darslik va qo‘llanmalar yaratilganligi. Ularda o‘zbek tilining fonetikasi, morfemikasi, so‘z yasalishi, leksikologiyasi, morfologiyasi va sintaksis yuzasidan izchil ma’lumotlar berilganligi.

Til birliklari orasidagi munosabat, paradigma, paradigmatic qator, sintagmatik aloqa, sintaktik aloqa, ierarxiya, lisoniy ziddiyat, noto‘liq ziddiyat, darajali ziddiyat, teng qiymatli ziddiyat, ziddiyatning kuchli a’zosi, ziddiyatning kuchsiz a’zosi, binar ziddiyat, termar ziddiyat. Til va nutq birliklari orasidagi muhim farqlardan yana biri til birliklarining tanlanishga imkon beradigan paradigmalarda, nutq birliklarining esa tanlanish asosida birin – ketinlikda birlashadigan hosilalar - sintagmalarda voqe bo‘lishidir. Lisoniy birliklar bir-birini eslatib turish xossasiga ega. Masalan, [a] fonemasi [o] fonemasini, [u] fonemasi [o‘] fonemasini, [i] fonemasi [e] fonemasini eslatadi. Lekin [a] fonemasi dabdurustdan [q] yoki [g‘] fonemasini eslatmaydi. Chunki ular ikki tizim – unli va undosh tizimiga kiradi. Bir-birini eslatuvchi birliklar umumiyl o‘xshash belgilarga ega bo‘ladi. Masalan, kelishik shakllarining umumiyl belgisi “so‘zni so‘zga bog‘lash”, ammo ular farqli belgilarga ham ega bo‘luvi shart, ya’ni qaratqich kelishigi otni otga, tushum kelishigi otni fe’lga bog‘laydi. Yoki unli fonemalar “sof ovozga egalik” umumiyl belgisi ostida birlashadi. Ammo ular farqli belgilarga ham ega: [a] lablanmaganlik, [o] lablanganlik farqlovchi belgilariga ega. Umumiyl belgilari asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har bir

o‘ziga xos belgilari bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi p a r a d i g m a deyiladi. Paradigmani tashkil etuvchi birliklar paradigma a’zolari deb yuritiladi. Paradigmada kamida ikkita a’zo va ular bir lisoniy sathga mansub bo‘lishi shart. Bir paradigma a’zolari orasidagi o‘zaro munosabat paradigmatic munosabat deyiladi. Chunonchi, otlarning egalik affikslari orasidagi paradigmatic bog‘lanishni ko‘raylik. Paradigma qatorida olti affiks bo‘lib, ularning har biri “narsa – buyumning shaxsga qarashliligi” ma’nosiga ostida birlashadi. [2] Ayni vaqtida ularning har biri o‘zining xususiy ma’nosiga ega, ya’ni ma’lum predmetning birlik yoki ko‘plikdagi shaxs turlaridan aynan biriga qarashlilikni ifodalash bilan bir-biridan farq qiladi va shu jihatdan o‘zaro oppositiv sanaladi:

[- im]-[- imiz]

[- ing]-[- ingiz]

[- i]-[- lari]

Paradigmatik bog‘lanish fonema, morfema, leksema, konstruksiya kabi til birliklarini kishi xotirasida “zanjirsimon” tarzda ushlab turadi. Natijada ulardan birining eslanishi u bilan bog‘langan boshqa birliklarni yodga tushiradi, shu yo‘l bilan til birliklarining xotirada dastlabki kichik sistemalarga uyushuvi ta’milanadi. Lisoniy birliklar tizimining qaysi lisoniy sathga mansubligiga ko‘ra fonetik, leksik, morfologik, sintagmatik paradigmalar farqlanadi. F.de Sossyurning talqini bo‘yicha sintagmatik aloqa, avvalo, til birliklarining yotiqlichiziq bo‘yicha birin-ketin o‘zaro bog‘lanib munosabat hosul etishidir. Sintagmatik aloqa lisonda ham, nutqda ham mavjud bo‘ladi. Chunki sintagmatik aloqaga kirishish qobiliyati, imkoniyati til birliklarida mujassamlangan bo‘ladi. Chunonchi, predmetlikni ifodolovchi leksema son kategoriyasi morfemalari bilan sintagmatik aloqaga kirisha oladi, lekin [- roq] morfemasi bilan xuddi shunday aloqaga kirisha olmaydi. Shuningdek, [kel -] fe’li nisbat, mayl, zamon kabi kategoriyalarning morfemalari bilan sintagmatik aloqa hosil qila oladi, lekin otlarga mansub son va egalik morfemalari bilan bog‘lana olmaydi. Qoshimcha va o‘zaklarda bo‘lgani kabi lug‘aviy birliklarda ham o‘ziga xos qo‘shnichilik (sintagmatik) munosabatlari mavjud. Lug‘aviy birliklarning o‘zaro qo‘shnichilik munosabatlariga kirishishlari uchun ular orasida ma’no o‘xhashligi, aloqadorligi, mantiqiy bog‘lanish bo‘lishi shart. Masalan, “temir qoshiq” birikmasini olaylik. Bunda “qoshiq” so‘zi biror moddadan yasalgan narsani, “temir” esa shu moddani bildirib keladi. So‘zlar ifodalagan ma’nolar orasida ham mantiqiy, ham ijtimoiy bog‘lanishlar mavjud. Ushbu birikmada lug‘aviy birliklar o‘z ma’nosida qo‘llangan. Ammo “temir iroda” birikmasida qo‘llanilgan “temir” so‘zi ko‘chma ma’no kasb etgan. Buning sababi shundaki, “iroda” biror moddadan bo‘lmaydi. “Temir iroda” so‘z birikmasidagi qo‘shnichilik munosabati g‘ayrioddiy, tasodifiy munosabatdir. Ko‘rinib turganidek, sintagmatik munosabat nutqda ro‘yobga chiqsa ham, bunday munosabatga ega bo‘lish imkoniyati til birliklarida mujassamlangan

bo‘ladi. Sintagmatik aloqani sintaktik aloqadan farqlash lozim. Sintagmatik aloqa keng tushuncha.[3] Sintagmatik va sintaktik aloqa butun – bo‘lak munosabatidir. Boshqacha aytganda, sintaktik aloqa sintagmatik aloqaning bir ko‘rinishidir. Sintagmatik aloqa barcha til birliklariga xos ketma-ket bog‘lanish bo‘lsa, sintaktik aloqa so‘z va gaplarning hokim – tobeklik munosabatidir. Til birliklari orasida paradigmatic (o‘xshashlik), sintagmatik (qo‘sni chilik) munosabatlar bilan bir qatorda ierarxik (pog‘onali) munosabatlar ham farqlanadi. Bunday munosabatda til birliklari o‘zaro butun – bo‘lak, tur – jins aloqalari bilan bog‘langan bo‘ladi. Masalan, morfologik sathda qaratqich kelishigi bir otni ikkinchi ot yoki harakat nomiga bog‘lashga xizmat qiladi, shu bilan u kelishiklar guruhiga kiradi, kelishiklar so‘zlarni bir-biriga bog‘lovchi vositalar sifatida ko‘makchilar bilan birgalikda tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lovchi vositalar guruhiga kiradi. Tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lovchi kelishiklar va ko‘makchilar bog‘lovchi va egalik kategoriyasi bilan birgalikda so‘zlarni bir-biriga bog‘lovchi vositalar sirasiga mansub bo‘ladi. Leksik sathda [o‘simplik], [daraxt], [tol] lug‘aviy birliklari quyidagi ierarxik munosabatda turadi: [tol] anglatgan ma’no va tushunchasiga ko‘ra [daraxt] ma’no tarkibiga, [daraxt] esa [o‘simplik] ma’nosining tarkibiga kiradi.

Biz yuqorida paradigmatic munosabatlar haqida gapirib, paragma a’zolari o‘zaro ziddiyatda turadi, deb ta’kidlagan edik. Endi lisoniy ziddiyat va uning turlari haqida qisqacha so‘z yuritaylik.

A’zolari orasidagi munosabatlarga ko‘ra ziddiyatlar:

- a) noto‘liq (privativ);
- b) darajali (gradual);

d) teng qiymatli (ekvivalent) kabi turlariga bo‘linadi. Noto‘liq ziddiyatda a’zolardan biri ziddiyat belgisiga ko‘ra ijobjiy boshqasi betaraf munosabatda bo‘ladi. Masalan, [qo‘chqor] va [qo‘y] leksemalariga murojaat qilaylik. [qo‘chqor] so‘zining ma’no tarkibidagi “erkaklik” belgisi doimiy, o‘zgarmas, [qo‘y] so‘zi esa urg‘ochi qo‘yni atab keladi. Ammo ba’zan [qo‘y] so‘zi “urg‘ochilik” ma’nosini yo‘qotib “erkak qo‘yni ham atab kelishi mumkin. Demak [qo‘chqor] va [qo‘y] noto‘liq ziddiyatida ziddiyat belgisi “erkaklik ”dir. Bu belgi [qo‘chqor] so‘zida ifodalangan, shuning uchun u ziddiyatning kuchli a’zosi sanaladi. [qo‘y] so‘zida esa ifodalanmagan, shuning uchun u ziddiyatning kuchsiz a’zosidir. Ziddiyatning kuchli a’zosi (barqaror, o‘zgarmas) musbat alomati (+) bilan, kuchsiz a’zosi nol (0) belgisi bilan beriladi. Bunday misollarni [tovuq] va [xo‘roz]; [o‘g‘il] va [bola] leksemalari misolida ham tushuntirish mumkin. Ushbu noto‘liq ziddiyatda turuvchi [tovuq], [bola] leksemalari betaraf munosabatda, [xo‘roz] va [o‘g‘il] leksemalari ijobjiy, barqaror, o‘zgarmas munosabatda turadi. Noto‘liq ziddiyat tilning barcha sathlarida mavjud. [4]

Xulosa:

Masalan, morfologiyada leksemalarni umumiyligini grammatick ma'nolariga ko'ra mustaqil va nomustaqliga leksemalarga bo'lish privativlik asosida amalga oshiriladi. Bunda "lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik" noto'liq ziddiyatning belgisi bo'lib, ziddiyatda mustaqil leksemalar belgilanmagan, kuchsiz a'zo bo'lsa, nomustaqliga leksemalar belgili, kuchli a'zo sifatida nomoyon bo'ladi. Chunki nomustaqliga leksemalar barqarorlik, o'zgarmaslik belgilariga ega. Mustaqil leksemalar o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lib, ba'zan yordamchi leksemalar o'rniда ham kela oladi. Bunga yarim ko'makchilar, yarim bog'lovchilarni misol keltirish mumkin. Darajali ziddiyat a'zolari kamida uchta bo'lib, bir belgining o'sib borishiga ko'ra a'zolar qator hosil qiladi. Darajali ziddiyat ham tilning barcha sathlarida uchraydi. Masalan, fonetikada unli fonemalar tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra ziddiyat hosil qiladi: [o]~[o']~[u]. Leksikada [tuzuk] ~ [durust] ~ [yaxshi] ~ [ajoyib], [shivirla] ~ [pichirla] ~ [ayt] ~ [gapir] ~ [baqir] ~ [hayqir], morfologiyada [harakat nomi] ~ [sifatdosh] ~ [ravishdosh] (fe'lning o'zgalash darajasiga ko'ra belgisi asosida) kabi darajali ziddiyatlar hosil qilinadi. Teng qiymatli ziddiyatda ikki a'zo o'ziga xos xususiyatiga ko'ra qarshilantiriladi. Masalan, jarangli va jarangsiz undoshlar; oq va qora:men va sen, ona va ota kabi bir-biriga qarama-qarshi ma'noli so'zlar birligi teng qiymatli ziddiyatda turadi. Ziddiyatlar a'zolari miqdoriga ko'ra ikki a'zoli (binar) va uch (ko'p) a'zoli (ternar) ziddiyatlarga bo'linadi. Noto'liq teng qiymatli ziddiyatlar binar va darajali ziddiyat ternar ziddiyat deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ne'matov H. Rasulov R. O'zbek tili leksikologiyasi Toshkent-2009[1]
2. Ne'matov H. O'zbek tilida nofonologik sathlar . Nomzodlik dissertatsiyasi Toshkent-2002[2]
3. Safarova R. Leksik semantik munosabatning turlari. Toshkent-2014[3]
4. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Andijon. 2012[4]

МАКТАБ YOSHIDAGI BOLALAR AQLIY TARAQQIYOTI RIVOJLANISHIGA TA`SIR ETUVCHI OMILLAR BORASIDAMETODIK TAVSIYA

Mamanazarova Safaro Jumanazarovna

Toshkent viloyati Qibray tumanidagi

25-umumta`lim maktabining Boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur metodik tavsiyada kichik maktab yoshidagi bolalarning o`qish faoliyati, qiziqish va harakatchanligi, ulardagи aqliy taraqqiyot rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillar, o`quvchilarda qiziqishlar, aqliy taraqqiyot rivojlanishi va ularning ahamiyati haqida metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so`zlar: aqliy rivojlanish, taraqqiyot, o`quvchi, kichik maktab yoshi, qiziqish, o`qish, topshiriq, axloqiy sifat, mustaqil fikrlash, malaka va ko`nikma.

FACTORS AFFECTING THE INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL CHILDREN

Abstract. The article provides information on the educational activities, interests and mobility of primary school children, factors affecting the development of their intellectual development, the interests of students, the development of intellectual development and their significance.

Keywords: mental development, academic performance, student, primary school age, interest, reading, homework, moral qualities, independent thinking, skills and abilities.

KIRISH

Bugunga kunda mamalakatimizning rivojlanishi va ravnaqi uchun xizmat qiladigan, aqliy rivojlangan, iste`dodli yoshlarni tarbiyalash talab etilmoqda. Shunday ekan ta`lim jarayonini mukammallashtirmay jamiyat talab etayotgan yoshlarni shakllantirib bo`lmaydi.

Ma'lumki, har qanday insonning o'sish, rivojlanish va shakllanish davrlari ta'limtarbiya faoliyatisiz amalgam oshmaydi. Aqliy taraqqiyot va ta`lim-tarbiya, bir-biriga chambarchas bog'liq faoliyatdir. Ta`lim jarayonida o`quvchi faollik ko`rsatmasa amalga oshirilayotgan tadbirlar ko`zlangan natijani bermaydi. Ta`lim jarayonida o`quvchilarni mustaqil ishlashga o`rgatish ham muhimdir. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o`qish hisoblanadi. O`quv faoliyati boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlnishi uchun yangi sharoit yaratadi. Maktabga kelgan bola o`z atrofidaglar bilan psixologik jahatdan yangi munosabat tizimiga o`tadi.[1] U o`zining hayotini tubdan o`zgartirishni, unga yangi mjburiyatlar, o`quv faoliyati talablariga bo`y

so`nish, har kun maktabga borishni his eta boshlaydi. Oila a`zolarining bola o`quv faoliyati yutiqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangicha shakldagi munosabat uning ijtimoiy mavqeい o`zgarganligini to`la his etishga o`ziga nisbatan munosabatning o`zgarishiga asos bo`ladi.

Ta`lim jarayonidagi barcha imkoniyatlar orqali kichik yoshdagi o`quvchining bilimlar egallash ko`lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobilayati rivojlanadi, tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi. Ular har bir narsaga berilib, sinchkovlik bilan ular o`rtasidagi farqni ajratish, umumlashtirish, xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Bola maktabga qadam qo`yishi bilanoq unga bo`lgan munosabat va talablar orqali o`ziga xos bo`lgan aqliy rivojlanish xususiyatlari uchun imkoniyatlar va shart – sharoitlar yaratish oila, maktab ta`lim tizimiga ulkan ma`suliyat hissini yuklaydi. Boshlang`ich sinf o`quvchilar ishonuvchan, tashqi taassurotlarga beriluvchan bo`ladilar. [2]

Buyuk alomallarimiz ta`kidlaganidek, kishining fe'l atvori hammadan ko`ra ko`proq hayotining dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo`lgan sifatlar mustahkam o`rnashib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkichi tabiatida tabiiy hissiyotlarni fazilatlarni tarkib toptirish yukask axloq normalarini shakllantirish uchun butun ma`suliyat boshlang`ich sinf o`qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur davrida o`qituvchining har bir gapi har bir hatti harakati ta`sir ko`rsatish uning uchun haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Chunki o`quvchilar o`qituvchilarga qattiq ishonadilar. Uning fikr mulohazalariga qulqoq soladilar. Pedagogik nazokatida jiddiy tasvirlanadilar. Talablarga hamisha amal qiladilar. U bergen topshriqlarni bekamu kust bajarishga intiladilar. To`g`ri mulohaza yurtishga o`rganish noma`qul qiliqlardan tiyish va musiqa tinglashga odatlantirish ularga nimalar bilan shug`ul-lanish kerakligini, burch hissini tushuntirish ular bilan o`qilgan kitoblarni, ko`rilgan tomoshalarni muhokama qilish imkoniyati tug'iladi. [3]

Kichik mакtab yoshdagi o`quvchilarning axloqiy sifatlarni rivojlantirishdagi ko`zlangan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish shart. Ma'lumki, o`quvchilarning psixologik xususiyatlari har xil bo`lib, bir o`quvchiga muvaffaqiyat bilan qo'llangan tarbiyaviy ta`sir vositasi boshqa birga qo'llanilganda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlar o`quvchilarga yakkama-yakka yondoshib amalga oshirilsa yaxshiroq samaraga erishilishi shubhasizdir. Mazkur vazifalarni amalga oshirish o`qituvchi o`quvchilarning xususiyatlarini qanchalik o`rganganligiga bog'liqdir. Ta`lim jarayonida har bir o`quvchining psixik dunyosiga oqilona yo'l topa olish muvaffaqiyatlarning garovidir. [4]

Ta`lim - tarbiya jarayonida bolalarni hayoti va faoliyatini shunday uyushtirish lozimki, bunda bola shaxsining kichik yoshida o`quvchilarda tarkib topgan xususiyatlar toboro boyib va mustahkamlanib boradi. Maktab ta`limining dastlabki

yilaridagi bilishga bo`lgan qiziqishlar, tevarak atrofdagi olamni bilishga bo`lgan qiziqish ko`proq intellektual qiziquvchanlikni sezilarli ravishda rivojlantiradi. Psixologlarning ta'kidlashicha, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olinadigan hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil bo`ladi. O`qish faoliyatida kichik yoshdagi o`quvchilarning aqliy jarayonlari bilish uchun bo`lgan qiziqishlar bilan faollashib qiziqisho`quvchilarning aqliy faoliyati asosida paydo bo`ladi va uning shaxsiy individual sifatida o`quvchilarning ana shu aqliy faoliyatini yanada rivojlantiradi. O`quvchilarning qiziqishlari mazmuni, barqarorligi jihatdan hilma – xildir. Keng mazmunli va barqaror qiziqishlar o`quvchilarning yoshligidan paydo bo`la boshlaydi. [5]

MUHOKAMA

Ma'lumki I-II sinf o`quvchilarida xali qiziqishlar yaqqol namoyon bo`lmaydi, o`quvchilar o`qish jarayonida hamma narsalarga qiziqish bilan munosabatda bo`ladilar. O`zlari o`zlashtirgan faoliyat ularni qanoatlantiradi. Keyinchalik esa, sabablarni, qonuniyatlarni, hodisalar o`rtasidagi aloqa va bog`liqliklarni bilib olish uchun bo`lgan qiziqishlar rivojlanadi. Agar I-II sinf o`quvchilarini “Bu nima?” – degan savol ko`proq qiziqtirsa, bir muncha kattaroq yoshdagi bolalar uchun “Nima sababdan?”, “Qanday qilib?” degan savollar muhim bo`lib qoladi. O`qish malakasining rivojlanishi bilan kitob o`qishga qiziqish yuzaga keladi. Dastavval kitob o`qishga, undan so`ng esa mazmuni o`tkir va qiziqarli bo`lgan muayyan adabiyotlarni, ertaklarni o`qishga, keyinchalik qiyin bo`lмаган ilmiy sarguzashtlar haqida kitoblarni o`qishga qiziqish paydo bo`ladi. I-II sinf o`quvchilarini o`zlashtirayotgan materialni mazmuni, o`qish ishlarining ayrim usullari o`ziga jalb eta boshlaydi. III va IV sinf o`quvchilarining mustaqilligi o`sib boradi. Bu yoshdagi o`quvchilar aqliy faoliyat usullari, o`z xotirasi, nutqi, diqqati hamda irodasini o`stirish bilan bog`liq bo`lgan barcha ishlarga qiziq qilib boshlaydi. IV sinfda o`quvchilar o`zlarining har xil fanga bo`lgan qiziqishlarini aniq belgilaydilar. Fanlardan ba'zilariga ko`proq e'tibor berib uni yoqtirsalar, ba'zilarini yoqtirmaydilar. [6]

O`quvchilar qaysi ishdan ko`proq qanoat hosil qilsalar, shu ishlar ularda qiziqish paydo qiladi. Bola ma'lum ishni bajarayotganda o`ziga bo`lgan ishonchni yo`qotmasligi, o`ziga topshirilgan ishni bajara olishni bilish, buning uchun esa faqat g`ayrat – shijoat ko`rsatish kerakligini anglashi kerak. O`quvchilarda ta'llim va tarbiya olish, dam olish tartibining to`g`ri uyushtirilishi ham o`quvchilarda qiziqishlarning barqaror bo`lishida muhim ahamiyatga ega. O`quvchilarning qiziqishlari kattalarni diqqat e'tiborida bo`lishi lozim. Bolalarni ijobiyligini qiziqishlari kattalar tomonidan rag`batlantirishi, quvvatlantirilishi kerak. Ularni qiziqishlarini payqash, uning uchun eng sevimli, doimo o`ziga jalb etadigan faoliyatni e'tiborga olmaydigan o`qituvchi va ota-onalar yomon pedagog va yomon tarbiyachidir. O`quvchi uchun o`qituvchi hayotining eng yaxshi idealidir. [7]

Doimo oldinga qarab intiluvchi, mazmunli keng qiziqishlar bilan yashovchi o`qituvchi o`quvchilarga yuksak ma`naviy qiziqishlarni, aqliy rivojlanishni paydo bo`lishiga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda texnikaga, hozirgi zamon texnikalari, eng yangi tipdagi avtomobil, samolyot, kopmyuterga bo`lgan qiziqishlar tez tarkib topadi. Qishloq maktablarining III va IV sinf o`quvchilari qishloq xo`jaligiga nisbatan sezilarli darajada o`z qiziqishlarini namoyon qila boshlaydi. Bolalar parandalarni, uy hayvonlarini bajonidil boqadilar va ular haqida ma'lumotlar to`play boshlaydilar. Bu esa bolalarni bilish darajasini rivojlanishiga ta'sir etib boradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda o`qishga bo`lgan qiziqishni rivojlanishi to`g`ridan – to`g`ri ta'limning tashkil qilinishiga bog`liq. Shuning uchun o`qituvchi boshlang`ich sinf o`quvchilarida qiziqishlar rivojlanishining qonuniyatlarini nazarda tutishlari kerak.[8]

NATIJA

O`quvchilarda qiziqishlar, aqliy taraqqiyot rivojlanishi oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, tasvirlashdan tushuntirishga, faktlardan umumlashtirishga qarab boradi. O`quvchilarni ta'limni o`zlashtirishga quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: □ O`quvchilar qanchalik yosh bo`lsalar, ta'lim shunchalik ko`rgazmali bo`lishi hamda faol harakt qilish katta rol o`ynaydi. Barcha o`quvchilar bir xil bilimga ega emas, ular turli tayyorgarlik darajasiga ega va bundan boshqacha bo`lishi ham mumkin emas. Shu sababli berilgan materialni bilmaslik past o`zlashtirishning asl sababini ko`rsatmasligi mumkin. Bilamizki, ko`pchilik pedagoglar o`quvchilarning aqliy rivojlanishini baholashda qiynaladilar va buning oqibatida ularning ish faoliyatida ta'lim jarayonida hisobga olinishi lozim bo`lgan muhim omil go`yoki chetda qolib ketadi. Shuni ta'kidlab o`tish kerakki, o`quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi ulardagi nazariy yoki amaliy bilim olishga bo`lgan qobiliyat yoki bilimning mavjudligi bilangina aniqlanmaydi. [9]

O`quvchining aqliy rivojlanish darajasi tafakkur jarayonlarining rivojlanganligi, o`quv materialining muhim va asosiyлarni ajrata olishi, olgan bilim yoki hosil qilingan, o`zlashtirilgan ko`nikmani boshqa faoliyatga ko`chira olishi, turli nazariy bilimlarni amalda qo`llay olishi, mustaqil fikrlashi, xulosa chiqara olishi kabi bir qancha belgilar bilan aniqlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda uchinchi sinf o`quvchilarning odob tog'risidagi fikr, va mulohazalari mazmuni va shakli va tuzilishi bilan fikr mulohazalaridan farqlanadi. Buning sababi ularning turmush tajribasi ko`lami kengroqligi yosh davri xususiyatiga bog`liq farq bilan narsaga turlicha qarsh har xil yondashish muammo mohiyatini ochib berish uslubi bo'yicha ham farqlar mavjuddir. I-III sinf o`quvchilarida axloqiy tushunchalarni tarkib topishi uchun avvalo har bir tushunchaning muhim alomatini ajratishning umumlashtiruvchi ikkinchi darajali belgilarni topishi o'zgartirish zarurligini ko`rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boymurodov N Amaliy psixologiya T.: 2008 y- 316 b.
2. Dilnoza Xalkuziyeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorligining psixologik jihatlari.
3. Ivanov P.I. M.Zufarova "Umumiy psixologiya" T.: 2008 y
4. Jo'raev S. , F.Qodirov "Kichkintoylar nutqini o'stirish" T.: 2005 y.
5. Nishonova Z. Alimova G. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" T.: 2006 y
6. Nishonova Z.T. Do`stmuxammedova Sh.A. To`lyaganova Sh.T. Pedagogik psixologiya. Toshkent 2011
7. Voxidov M. "Bolalar psixologiyasi" T.: O'qituvchi. 1982 y.
8. Султонова Н.А. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В СЕМЬЕ // SCIENTIFIC PROGRESS 2021// 1 (6), 631-635
9. Юлчибоева, Д. Э. (2021). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. Scientific progress, 1(6), 695- 698.a

BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARINING O`QISH DARSLARIDA BOLA NUTQINI O`STIRISH BORASIDA METODIK TAVSIYA

*Erqo`ziyeva Nargiza Axmadjanovna
Toshkent viloyati Qibray tumanidagi
25-umumta`lim mакtabining boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

Anotatsiya. Mazkur metodik tavsiyada manaviyati boy, qalban yuksak, erkin fikrlovchi bolani tarbiyalashda nutq o`stiruvchi mashqlarning ahamiyati, bola nutqini o`stirishda o`qish darslarida qilinadigan ishlar haqida bayon qilingan.

Kalit so`zlar: og`zaki nutq, yozma nutq, fikr, o`yin, ertak, hikoya, lug`at, so`z, qayta hikoya qilish, tez aytish.

KIRISH. Yuksak ma`naviyatga ega bo`lgan, barkamol, sog`lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg`or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta`lim berish mamlakatimizning ta`lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazish borasida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev ta`kidlaganlaridek: “Yangi O`zbekistonning maktab bitiruvchisi zamonaviy ko`nikmalarni egallagan, axborot texnologiyalarni puxta o`zlashtirgan, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo`lib shakllanishi zarur.”[1]

Bu ezgu maqsadga erishish uchun boshlang`ich ta`lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o`taydi.

Boshlang`ich sinf o`qish darslarida bolani qalban yuksak, ma`naviy boy, nutqi ravon, erkin fikrlovchi, mustaqil fikrga ega qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o`rgatish muhim ahamiyatga ega. Bolalarmi kelajakda jahon standartlariga munosib kadr bo`lib yetishishida dastlabki poydevor, albatta, boshlang`ich sinf o`qituvchisi hisoblanadi. Har bir o`qituvchining dunyoqarashi uning muomalasida namoyon bo`ladi. Muomalaning asosiy vositasi - tildir! Shuning uchun o`quvchilarning og`zaki nutqini o`stirishida, avvalo, ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf etish yo`llarini izlab topishimiz kerak.[2]

NAZARIY QISM. Ma`lumki, boshlang`ich sinf o`quvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish o`qituvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko`rish, nutq buzulish sabablarini o`rganish lozim. Bola nutqidagi kamchiliklarni to`g`irlashda, ayniqsa, kitobning o`rni beqiyosdir. Shuning uchun ham bola nutqi bilan ishlashda ko`proq o`qish darslarida mashg`ulotlar o`tkaziladi. Dastlab darslikdagi qisqa hikoya va qissalar, ertaklarni qayta hikoya qilish, she`rlarni yod olish bolalar nutqini

ravonlashtirib boradi. Ikki haftada bir marta o'tiladigan sinfdan tashqari o'qish darslarida tanlangan adabiyotlar ham nutqni rivojlantirib boradi. Bolalar nutqini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining ahamiyati katta. Shuning uchun "O'qish kitobi" da "Ertaklar-yaxshilikka yetaklar" bo'limi berilgan. Unga kiritilgan ertaklar bolalarni obod - axloqqa o'rgatishi, ma'naviy juhatdan rivojlanishi bilan muhim ahamiyatga egadir. Masalan, "Ur to'qmoq" ertagidagi dehqon va boy obrazlari o'quvchilar ongida yaxshi va yomondan nafratlanishi, undan yiroqlashish kerakligi haqida tasavvur hosl qiladi. Maqtanchoqlik,adolatchilik, ochko'zlik juda yomon odat ekanligi, saxiylik, do'stga mehribon bo'lish, rostgo'ylik insonning ma'naviy yuksalishga yordam berishi uqtiriladi. [3]

AMALIY QISM. Xalqimizda shunday naql bor: «Bola - shirin so'zning gadosi». Shunday ekan, o'qituvchi muomala jarayonida juda ehtiyyotkor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham o'qituvchi har doim nutq madaniyatiga qatiyye e'tibor berishi, o'zining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlarini namuna sifatida namoyon etishi muhimdir. Boshlang'ich sinf o'qituvisining faoliyati faqat darslarini o'tish bilan cheklanmaydi, uning vazifasiga "Ifodali o'qish", "Yosh kitobxon" to'garaklarini tashkil etish hamda tanlovlarni tayyorlash va o'tkazish, o'quvchilarning nutq madaniyatini nazorat qilish, badiiy adabiyotlarni o'qish va ularni uyushtirish, bolalar va qo'g'irchoq teatri ishini yo'lga qo'yish kabi tadbirlar ham kiradi. Qilingan barcha tashkiliy ishlar bola nutqini rivojlantirishga hizmat qiladi. [4]

Bola atrofdagilarga o'z fikrini to'liq bayon qilib berishi o'qituvchining yutug'i hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda yod oldirish, so'zlarning ma'nosini tushuntirish yoki qayta hikoya qildirish kabi usullardan foydalanibgina qolmay, balki ular uchun qiziqarli faoliyat bo'lgan o'yinlardan foydalanish, ayniqsa, ko'zlangan maqsad, yuqori natijalarini qo'lga kiritishda katta yordam beradi. Chunki o'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. Bolalarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, o'yin dunyoni va o'zlikni anglashda, bog'lanishli nutqni o'stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Maktabga ilk qadamini o'yan bola huddi o'zga dunyoga tushib qolgandek bo'ladi. O'zida bor bo'lgan jihatlarni ham namoyon qila olmasligi mumkin. O'qituvchi bolalarni mahorat bilan maktabga moslashtiradi. Bunda asosiy vosita ta'limiy o'yinlar hisoblanadi. O'qituvchi vaziyatdan kelib chiqib o'yinning to'g'ri turini tanlay olishi kerak.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish vositalaridan biri to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli o'quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar

o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakatlari qaerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarning izchil bayon qilinishiga va o'zaro bog'liqlikni yoritishga yo'naltirilishi lozim.[5]

DIDAKTIK TAVSIYA. O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi. Ko'pincha boshang'ich sinf o'quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba'zan noto'g'ri yoki yuzasi tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab etmaydilar. Shuning uchun ham o'qituvchi yordamida asar o'rganiladi. Har bir qahramon harakteri savollar orqali ochib beriladi.[6] Qahramonlar salbiy yoki ijobiya ajratiladi. Fikrlar umumiylashtirib, xulosa chiqariladi. O'quvchilarning nutqini mukammal rivojlantirish uchun o'qituvchi ko'p izlanishi va ko'p bilim malaka va ko'nikmaga ega bo'lmoq'i lozim. Zero, kelajagimiz bo'l mish bolalar o'z ustozlari bilan fahrlanib yurishsin!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchilar va murabbiylarga yo'llagan tabrigidan. 29.09.2022. -Toshkent.
2. Q.Abdullaeva, K.Nazarov, Sh.Yo'ldosheva "Savod o'rgatish metodikasi" Toshkent."O'qituvchi",2019.
3. Abdullayeva Q. Birinchi sinfda nutq o'stirish. - Toshkent, "O'qituvchi", 1998.
4. 3. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Сыманюк Э.Э. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход: Учебное пособие. – М., 2005.
5. Ashrapova T., Odilova M. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 1984.
6. Xalimova Xoliniso Xasanboy qizi, Boshlang'ich sinflarda nutqni o'stirish metodlari – Guliston davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) yo'naliш kafedrasi dotsenti.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘ZLASHTIRISHI PAST O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKALARI

Do`rmonova Zulfiya Olimjonovna

Toshkent viloyati Qibray tumani 25-umumta`lim mакtabining

Boshlang`ich sinf o`qituvchisi

ANOTATSIYA: Ushbu metodik tavsiyada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim - tarbiya berish jarayoni, darsliklarda berilgan bilimlarni berish jarayonida o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarning faollligini oshirish, ularning o‘z tengdoshlari qatoriga yetib olishini ta’minalash, bilim, ko‘nikma, malaka va kompitensiyalarni shakllantirish, bilimlarni egallashida yuzaga keladigan muammolarni va ularni yechish qo‘llaniladigan metodikalar, shuningdek bu orqali erishilgan yaxshi natijalar kabi masalalar olib beriladi.

KALIT SO`ZLAR: boshlang‘ich sinf, ta’lim, tarbiya, o‘quvchi, bilim, ko‘nikma, malaka, kompitensiya, interfaol yondashuv, faollikni oshirish.

KIRISH. Zamnaviy ta’limning eng muhim unsurlari - qadimdan shakllanib kelgan. Ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta’lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan an’anaviy kategoriylar bo‘lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriylar ma’lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo‘yicha o‘quvtarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi.Qayd etilgan pedagogik yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Zamnaviy o‘qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo‘lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta’lim usullarini yaxshi bilishi kerak. Shu yerda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Mustaqil o‘ylay oladigan tafakkur yuritib, to‘g‘ri ma’qul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakillantirish va tarbiyalash kerak”,- deb ta’kidlaydi hurmatli yurtboshimiz o‘z nutqlarida.[1]

MUHOKAMA. Darhaqiqat, yoshlarni zamnaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo‘lib yetishishiga zamin yarata olmaymiz. Eng avvalo, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarga to‘g‘ri va maqsadga muvofiq bilim berish muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatishlar asosida ayta olamizki, boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchida o‘yin faoliyatining o‘rnini o‘qish faoliyati egallaydi. O‘qib-o‘rganish bolaning vazifasi, ijtimoiy burchi bo‘lib qoladi. O‘qish jarayonida u darsliklarini va o‘quv qurollarini saranjom saqlash, o‘z vaqtida o‘rnidan turish, maktabga belgilangan vaqtda borish, uyga berilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi.

O'quvchi tobora mas'uliyatli bo'lib boradi. Bilimlar bolaning saviyasini o'stiradi, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, sezgilari va irodasining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq bu davrda ham bolaning diqqati hali beqaror bo'ladi. Boshlang'ich sinfda o'quvchi xotirasida ham o'zgarishlar ro'y beradi. O'quvchi birinchi sinfdan boshlab, ta'lim jarayonida o'quv materialining ko'p qismini ixtiyoriy ravishda eslab qoladi. Shu bilan birga, o'z-o'zini doimo nazorat qilib borishi lozim. Buning natijasida o'quvchining xotirasi takomillashadi, tafakkuri o'sadi. 7-8 yoshli bolalarda ham tafakkur hali konkret xarakterda bo'ladi. Ular o'zлari idrok etgan yoki tasavvur qilgan narsalar haqidagina fikr yuritadilar. Mantiqiy tafakkurning dastlabki ko'rinishlari shakllana boshlaydi. Uchinchiva to'rtinchchi sinflarda o'quvchilar ilmiy bilimlarga oid ayrim tushunchalarni ham o'zlashtirib oladilar. Bu davrda o'quvchilarning ruhiyatida hissiy kechinmalar yuz beradi.[2]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida biror fanga, darsga nisbatan qiziqish yuzaga keladi. Ular ta'lim olishni burch ekanligini anglab yetadilar. Dars vaqtida o'quvchi faoliyatiga qo'yilgan yuqori baho o'quvchilarda ruhiy tetiklik, shodlik, iftixor kabi hissiy kechinmalarni tug'diradi. Ammo o'quvchilar orasida fanlardan orqada qolish, o'zlashtirishi past baholanadiganlari ham uchrab turadi. Ushbu o'quvchilar bilan har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi alohida ishlarni olib borishi va ulardagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, imkon qadar bunga yechim topishi zarur. Shunday ekan boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi har tomonlama yetuk, o'tkir diplomat, o'z kasbini ustasi, intellekutal salohiyatga ega shaxs bo'lishi shart.[3]

Har bir boshlang'ich sinfda dars berish jarayonida fanlarni o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarga duch kelamiz. Bu o'quvchilar bilan ishlash o'qituvchidan yuqori malaka talab qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi yangi metodikalari qo'llashi,past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning faolligini oshirishi va bu orqali past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning boshqa tengdoshlari qatoriga yetib olishini ta'minlash lozim. Shundagina har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ya olgan va har bir o'quvchi bilan individual ishslash jarayonini amalga oshiradi olgan hisoblanadi. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni mustaqil ishslashga o'rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida ta'limga uyg'un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun, avvalo, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli bajarishiga ishonch uyg'otish lozim.

Mustaqil ish turlari, avvalo, o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga yo'naltirilgan va davomiy bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, yosh xususiyati, qiziqishlari ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O'quvchilarni aqliy rivojlanirish shartlaridan biri topshiriqlarni to'la "eslab qolib" bajarishdir. Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan(tasavvur qilgan) holda uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo'l qo'yilgan xatolarni

mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning topshiriqlarni tez, to'g'ri bajarishi uchun qulay usullarni tanlash, yo'naltiruvchi savollar berib, tayanch so'zlar tavsiya etish foydalidir. Kichik maktab yoshi davrida faoliyatni va xulq-atvorni motivlashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. "Bolalar nimani yaxshi ko'rishadi va nimani istashadi?" degan savolga S.T.Shatskiy shunday javob beradi: Bolalarda til topishish instinkti kuchli rivojlangan, ular bir-birlari bilan tezda tanishib oladilar – o'yinlar, hikoyalar, o'zaro gap sotish, lofchilik kabilalar ana shunday instinkning belgilaridir.[4]

NATIJA. Bolalar tabiatan mohir tadqiqotchi. Ulardagi tez qo`zg`aluv-chanlik, oxiri ko`rinmaydigan savollar, hamma narsaga tegib ko`rish, ushlab ko`rish, tatib ko`rishga intilish sababi ana shunda. Bolalar o`zini ko`rsatib turgisi keladi, o`zi haqida, o`z taassurotlari haqida gapirgisi, o`rtoqlashgisi keladi. O`z menligini tez-tez namoyish etib turishi ana shundan. Uning fantaziyalari va tasavvurlari boy bo`ladi – bu bolalar ijodkorligi instinktidir. Bolalar hech narsadan bir narsa yaratishni, qandaydir g`ayrioddiy narsalarni to`qib chiqarishni yaxshi ko'rishadi. Bolalarda xarakterning shakllanishida taqlidchanlik instinkti katta rol o`ynaydi. Boshlang`ich ta'lim jarayonida bo'sh o'zlashtirishni vujudga keltiruvchi omillar, o'zlashtirmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish ta'lim jarayonida o'quvchi o'zlashtimasligining oldini olishga yo'naltirilgan chora – tadbirlar tizimini ishlab chiqish imkonini beradi. bo'sh o'zlashtirishning oldini olish bo'yicha tadbirlar tizimi har bir o'quvchi real o'quv imkoniyatlarining barcha asosiy tarkibiy qismlarini kompleks rivojlantirishga, ya'ni shaxsning intellektual, irodaviy, hissiy sohalarini bir vaqtida rivojlantirishga, uning ta'lim va tarbiyasini ta'minlash, o'qishga va jamoaga ijobjiy munosabatini rivojlantirish, uning ishga qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'quvchi real o'quv imkoniyatlaridan birining shakllanishi muhimligini yetarlicha baholamaslik, bu tizimning yaxlitligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada bo'sh o'zlashtirishning muvafaqqiyatli oldini olishga olib kelmaydi. Boshlang`ich sinflarda o'quvchilarni zo'riqish va turli psixologik ta'sirlardan asrash, qiziqarli o'yinlar orqali bilimlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchilarni ziyraklik va chaqqonlikka hamda fikrini to'g'ri va aniq ifoda etishga undovchi o'yinlardan foydalanishi samarali natija beradi. Masalan, "G'oyib bo'ljanini top" o'yinida turli geometrik shakllar yozuv taxtasi yoki magnitli doskaga tartibsiz joylashtiriladi. O'quvchilar shakllarni ko'rib bo'lgach, o'qituvchi "Tun", deydi. Bolalar ko'zini yumadi. O'qituvchi shakllardan bir nechtasini olib, yashiradi va "Kun", deydi. O'quvchilar ko'zini ochib, qaysi shakllar g'oyib bo'ljanini aytishi kerak.¹ Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni aniqlash va ular bilan ishslash o'qituvchidan alohida sabot va mas'uliyatni talab etadi. Shu bois bu toifa bolalar bilan shug'ullanish uchun, avvalo, yakkama-yakka suhbat o'tkazib, ularning qiziqishlarini aniqlash lozim. Maxsus jurnal tutilib, bolalarning o'zlashtirishini muntazam

monitoring qilib borilishi, o'quvchilarga qiynalayotgan fanidan alohida mashg'ulotlar daftari tuttirish kabi usullar ham samarali hisoblanadi. Shuningdek o'quvchilardagi ijobjiy o'zgarishlar rag'batlantirilishi muhim.

XULOSA. Bo'sh o'zlashtiruvchilarning faolligini oshirish uchun ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini hamda nutqini rivojlantirish kerak. Bunda turli ertaklardan foydalanish mumkin. O'qituvchi dars o'tishda boshqa ko'plab usullardan ham foydalanishi lozim. Eng muhimi, ular samara berishi. Shuningdek, o'zlashtirishi past o'quvchilar uchun O'qish darslarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali nafaqat o'quvchining o'qish savodxonligi ortadi, shu bilan birgalikda dunyoqarashi ham kengayadi. Ayniqsa, boshlangich sinf o'qish darsligida juda ham ko'plab hikoyalar beriladi.

O'qish darsida hikoyaning rejasini tuzish uchun quyidagicha xotiranoma juda foydalidir.

- Hikoyani o'qi.
- Uni qismlarga ajrat.
- Har bir qismdagи asosiy masalalarni top.
- Har bir qismga sarlavhalar qo'y.
- Qismlaming sarlavhalaridan reja tuz.

O'quv topshiriqlarining har xil turlaridan foydalanish o'quvchilarni ishga, ijodiy yondashishga va nazariy bilimlami amalda qo'llashga yordam beradi. Bunga erishish uchun o'quvchilaming bilimlarini ulaming dastlabki tushuncha, tasavvur va ko'nikmalarini shakllantirgan materiallardan boshqacha materiallar asosida mustahkamlash va takomillashtirish kerak. Shuningdek, bu materiallar ko'p variantli topshiriqlardan tashkil topib, ulaming har biri o'ziga xos bilishga doir va mantiqiy topshiriq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'rganish mashqlarining ana shunday yoiga qo'yilishi o'quvchilar ongida yangi bogianishlar hosil boiishiga va shunga ko'ra materialning yaxshiroq o'zlashtirilisiga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar davlat ilg'or ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muhim masala hisoblanadi. Chunki o'sha o'quvchi an'anaviy darslarda, yoki har doim jamoa bo'lib o'tkaziladigan darslarda ta'limni o'ziga qabul qila olmagan.[5]

Shunday ekan, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan dastlab barcha metodikalari individual qo'llab, keyin ularni jamoaviy metodikalar va doimgidek ta'lim-tarbiyada jarayoniga jalb qilish kerak. Xulosa qilib aystsak, boshlang'ich sinflarda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil etishda zamонавиy ta'lim-tarbiyada texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, yangi metodikalar fan foydalanish bilan bir qatorda ta'lim texnologiyalarini ham bu jarayon bilan uzviy ravishda bog'lab borishimiz kerak deb o'ylayman. Biz shu orqali pedagogik faoliyatga va o'quvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirishga to'g'ri

yondashgan bo‘lamiz va passiv o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompitensiyalarini o‘z o‘rnida shakllantirishga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev.Sh.M. “Taqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Intizor Jumaniyozova. "Boshlangich ta’lim jurnali.2022-yil 8-apreldagi soni. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". 1997. – 31-60-betlar.
3. Suvonov O va boshqalar. «Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash davr taqozosi». «Xalq ta’limi», 2004 yil, № 5.
4. Musurmonov A. “Ta’lim-tarbiyada xalq og‘zaki ijodidan foydalanish”. Т.: O‘qituvchi, 1993.
5. Mavlonova. A.R."Umumiyy pedagogika".166-bet.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	KAMQONLIK ASORATI VA UNI DAVOLASH USULLARI	3
2	KASB TANLASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI	13
3	O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA NUTQ JANRLARINING O'RGANILISHI	18
4	СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ	21
5	«INFORMATIKA VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI» FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLAR VA STEAM DAN FOYDALANISH	25
6	TABIY LANDSHAFT	28
7	O'RTA ASR SHARQ RENESSANSI SHAKLLANISH TENDENSIYALARI	31
8	МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ХИМИИ	34
9	КОРРУПЦИЯ – ПРЕПЯТСТВИЕ ДЛЯ РАЗВИТИЯ	39
10	"SINTAKSIS SATHDA ZIDDIYATNING IFODALANISHI"	43
11	MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR AQLIY TARAQQIYOTI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR BORASIDAMETODIK TAVSIYA	48
12	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QISH DARSLARIDA BOLA NUTQINI O'STIRISH BORASIDA METODIK TAVSIYA	53
13	BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZLASHTIRISHI PAST O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKALARI	56

Напоминание! — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.


Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович

Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон

Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2022-г.





OPEN  ACCESS

